

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT MADANIYAT INSTITUTI
“KASBIY-PEDAGOGIK TA‘LIM” FAKULTETI
“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI**

**“TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARI JARAYONIDA O‘QUVCHINI
KASBIY RIVOJLANISHIGA YO‘NALTIRUVCHI XARAKTER VA
UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “5140900-kasb ta‘limi” yo‘nalishi
bitiruvchisi Z.OMONOVA
Ilmiy rahbar: p.f.n.J.K.Fozilov
Kafedra mudiri: p.f.n dotsent Z.H.Qosimova

Mazkur bitiruv malakaviy ishi kafedaraning 2012 yil “___” _____dagi _____sonli
yig‘ilishida muhokamadan o‘tib, himoyaga tavsiya etilgan

Toshkent – 2012

**Mavzu: To‘garak mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchini kasbiy rivojlanishga
yo‘naltiruvchi xarakter va uning tarbiyaviy ahamiyati.**

Reja.

Kirish:

I. Bob. O‘quvchilarning kasbiy rivojlanishga darsdan tashqari to‘garak mashg‘ulotlarni tashkil qilishning yo‘naltiruvchi xarakteri.

1.1. Mustaqillik sharoitida ta‘lim tizimida o‘quvchi yoshlarni maktabdan tashqari ta‘lim muassasalari to‘garak mashg‘ulotlariga jalb etish.

1.2. Maktabdan tashqari ta‘lim tizimini tashkil etishning metodik asoslari.

II. Bob. To‘garak mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchini kasbiy rivojlanishga yo‘naltirishning amaliy uslubiyoti.

2.1. Maktabdan tashqari ta‘lim tizimida o‘quvchi yoshlarni to‘garak mashg‘ulotlariga qiziqtirishning ijtimoiy pedagogik omillari.

2.2. Maktabdan tashqari ta‘lim jarayonida barkamol avlodni tarbiyalashning bugungi kundagi holati va uning pedagogik-psixologik chora tadbirlarini ishlab chiqish.

Xulosa .

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Ilovalar.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ertangi kunimizning asoschilari bo'lgan bolalar va yoshlarga imtiyozli sharoitlar berilishi qonun hujjatlarida alohida tarzda belgilab qo'yilgan. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunning 10-moddasida ko'rsatilgan yoshlarni ijtimoiy jihatdan himoya qilishga oid davlat kafolatlari ichida yoshlar uchun sport-sog'lomlashtirish va madaniy-ma'rifiy muassasalarga imtiyozli shartlarda qatnashish imkoniyati berilishi mustahkamlangan. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Hammamizga teran bir haqiqat ayon bo'lishi kerak-biz yurtimizning ertangi rivoji yo'lida qanday chuqur o'ylangan dasturlarni tuzmaylik, bu rejalarni bajarish uchun qanday moddiy ba'za va imkoniyatlarni yaratmaylik, buning uchun qancha ko'p sarmoya safarbar etmaylik, ularning barchasini amalga oshiradigan, ro'yobga chiqaradigan qudratli bir omil borki, u ham bo'lsa, yuqori malakali ishchi kuchi va yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassis yoshlarimiz desak, o'ylaymanki, hech qanday xato bo'lmaydi".¹ O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ro'y bergan o'zgarishlar ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali Kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Ana shu ijtimoiy maqsadni amalga oshirish uchun yangi turdagi o'quv muassasalarining faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, o'tgan vaqt mobaynida uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalari imkoniyatlaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratildi.

Respublika uzluksiz ta'lim tizimida maktabdan tashqari ta'lim muassasalari va ularning faoliyati yetakchi o'rin tutadi.

¹ Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. Asarlar, 9-jild. -T.: "O'zbekiston" 2001.132-135, betlar.

O'zbekistonda maktabdan tashqari ta'lim tizimini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 17-moddasida «Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishlarini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etish» maqsadga muvofiq ekanligi alohida ta'kidlanib, ushbu ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini ta'minlashning iqtisodiy-moddiy asoslari yaratildi.¹

2004-2005 o'quv yili Respublika Xalq ta'limi vazirligi tomonidan «Maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini oshirish o'quv yili» sifatida e'tirof etildi. Shu munosabat bilan «Maktabdan tashqari ta'lim tizimini rivojlantirish hamkorlik dasturi» ishlab chiqilib, unda maktabdan tashqari ta'lim tizimini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligiga urg'u berildi.

Maktabdan tashqari ta'lim qo'shimcha ta'lim dasturlari asosida o'quvchilarning mavjud ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtlari va dam olishlarini tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, u bolalar (o'smirlar) ijodiyot saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar va o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar hamda sog'lomlashtirish muassasalarida tashkil etiladi. Maktabdan tashqari mashg'ulotlarning bugungi kunda dolzarbligi shundaki, birinchi o'rinda ishsizlikning oldini oladi ya'ni maktab darsligidan tashqari uyda ham biror mashg'ulot bilan shug'illanishi. Bugungi kunda maktab darsliklari bilan cheklanib qolayotgan yoshlarimiz bir munchani tashkil etmoqda anashularga o'zlarining qiziqishlariga qarab mashg'ulotlarga jalb etilsa ana ushanda o'quvchilarning kelajakda kasb tanlashga ham qiziqishi ortadi va tanlagan kasbining haqiqiy mutaxassisi bo'lib yetishadi. Respublika uzluksiz ta'lim tizimining muhim va tarkibiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan maktabdan tashqari ta'limni samarali yo'lga qo'yish o'quvchi yoshlarning

¹ O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 17-moddasi.

tobora ortib borayotgan ijtimoiy-madaniy va ta'limiy ehtiyojlarini qondirish bilan birga ularning ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirish hamda iste'dodlarini erkin namoyish etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Ayni vaqtda o'quvchi-yoshlar maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ixtiyoriy ravishda ta'lim olib, badiiy va texnik ijodiyot, sayyohlik-o'lkashunoslik, sport, ekologik hamda tadqiqotchilik faoliyatlarini tashkil etish imkoniyatlariga egalar.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining metodik ta'minotini yaxshilash, uni sifat bosqichiga ko'tarish yo'lida ham samarali ishlar amalga oshirildi. 2004-2006 yillar mobaynida 50 dan ortiq to'garaklar dasturlari va 429 nomdagi metodik tavsiya yaratildi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagoglarining kasbiy mahoratlari oshirildi. Ta'lim samaradorligini oshirish hamda ta'lim sifatini jahon ta'limi standartlari darajasiga ko'tarishga yordam beruvchi, shuningdek, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida ijodiy faollik va munozarani yuzaga keltiruvchi o'nlab mualliflik dasturlari ishlab chiqildi.

Shu bilan birga Respublika maktabdan tashqari ta'lim tizimini takomillashtirish yo'lida hal etilishi zarur bo'lgan muammo ham mavjud. Xususan:

- o'quvchilarning maktabdan tashqari ta'limga bo'lgan qiziqishlari va ehtiyojlari darajasi o'rganilmagan;

- maktabdan tashqari ta'lim mazmuni, uning ta'lim oluvchilar yoshi, ta'lim muassasasining turi, ijtimoiy-pedagogik faoliyati yo'nalishlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi mazmun, shakl, metod va vositalar asoslanmagan;

- mintaqalarda mahalliy xususiyat va o'quvchilarning ta'limiy ehtiyojlarini to'la qondirish maqsadida maktabdan tashqari ta'lim tizimi yo'nalishlari aniqlanmagan;

- maktabdan tashqari ta'lim tizimiga o'quvchilarni faol jalb etilishiga erishilmagan;

- turli yo'nalishlar bo'yicha alohida qobiliyat va iqtidorga ega o'quvchilarning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga oid pedagogik muammolar hal etilmagan.

Bu muammolarning ijobiy hal etilishi maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdagi rolini oshiradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: maktabdan tashqari ta'limning mohiyati, uning shakllanish tarixi, Jahon ta'limi hamda Respublika uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rni hamda yoshlarni har tomonlama kamol toptirishdagi roli kabi masalalar A.G.Asmolov, O.S.Gazman, V.A.Gorskiy, A.Pinkus, A.Manaxanlar tomonidan tadqiq etilgan.

T.Jiyemuradov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot o'quvchilarning bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanish masalasiga qaratilgan bo'lib, unda maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni, yo'nalishlari, tamoyillari, vazifalariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Umumiy o'rta ta'lim tizimi, kasb-hunar kollejlari faoliyatini tashkil etish va ta'lim sifatini nazorat qilish muammolari R.Sh.Ahliddinov va U.I.Inoyatovlar tomonidan amalga oshirilgan ishlarda umumiy o'rta ta'lim tizimi va kasb-hunar kollejlari faoliyatini samarali tashkil etish shartlari, boshqaruv tamoyillari, ta'lim sifatini nazorat qilishning o'ziga xos xususiyatlari, mazkur jarayonda yetakchi rol o'ynovchi sub'yektlar va ularning vazifalari batafsil tahlil etilgan.

O'zbekiston sharoitida maktabdan tashqari ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida ta'lim muammolari va ularni ijobiy hal etish doirasida o'rganilgan.

Masalan, J.Yo'ldoshov, O.Musurmonova, A.Sulaymonov H.Q.Yo'ldoshovlarning tadqiqot ishlarida maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, o'quvchilarni ushbu ta'lim muassasalari faoliyatiga jalb etish, uning faoliyat samaradorligini oshirish masalalariga to'xtalib o'tilgan.

R.H.Jo'rayev, hamda Sh.Mardonovlarning ishlarida Respublika uzluksiz ta'lim tizimi uchun pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning kasbiy malakalarini oshirishning nazariy jihatlarini, tashkiliy asoslari hamda ijtimoiy-pedagogik ahamiyati ochib berilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar ta'minotini tashkil etishga texnologik va innovatsion yondashuv muammosi V.Bespalko, M.Klarin, U.Nishonaliyev, N.Saidahmedov, M.Ochilov, B.Farberman, O'.Tolipov va M.Usmonboyevalarning ishlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Bu tadqiqotlarda uzluksiz ta'lim tizimi hamda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini texnologiyalashtirish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan ta'lim tizimida samarali foydalanish malakalari hamda ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish muammosining yechimlari bayon etilgan.

Nazariy tahlil natijalarining ko'rsatishicha, maktabdan tashqari ta'lim tizimini tashkil etish, ular faoliyati mazmunini ijtimoiy o'zgarishlar hamda milliy istiqlool g'oyasi asoslari bilan boyitish muammosi tadqiqot yo'nalishi sifatida tanlanmagan.

Ayni vaqtda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yangilash, ular tomonidan tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiya jarayoniga ilm-fan yutuqlari, ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda ish tajribalarini joriy etish, ushbu ta'lim muassasalari pedagoglarida o'quvchi shaxsiga (insonparvarlik va demokratik tamoyillar pedagogik jarayonda uning mustaqil, erkin faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga asoslanuvchi, shuningdek, uning qadr-qimmatini yuqori qo'yuvchi) yangicha yondashuvni shakllantirish, rivojlangan xorijiy davlatlar ta'limi tajribasiga asoslangan holda pedagoglarning ijodkorlik va mualliflik loyihalarini ishlab chiqish malakalarini hosil qilish masalalari dolzarb pedagogik muammo bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotlari mohiyatining ilmiy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmaganligini inobatga olgan holda «O'zbekistonda mustaqillik sharoitida maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotini tashkil etishning pedagogik asoslari» mavzusi tadqiqot muammosi sifatida belgilandi.

Mavzuning maqsadi: O'zbekiston Respublikamizda maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotini tashkil etishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish.

Mavzuning ob'yekti: Respublikamizda maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotini tadqiq etish jarayoniga yo'naltirilgan ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuning predmeti: Respublika maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotini tashkil etishning mazmuni hamda tashkiliy-texnologik asoslari, istiqbolli yo'nalishlari aniqlansa.

Mavzuning vazifalari:

- maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotini tashkil etishning mavjud ahvolini tahlil etish va rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish;

- maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotini tashkil etishning nazariy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish;

- maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotini tashkil etishning samarali omillarini aniqlash asosida ulardan maqsadli foydalanish chora-tadbirlarini belgilash;

- maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotini tashkil etish samaradorligini ta'minlash maqsadida mazkur muassasalarda faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakalarini oshirishga nisbatan innovatsion yondashuvni qaror toptirish hamda masofaviy ta'limni yo'lga qo'yish imkoniyatlarini aniqlash;

- maktabdan tashqari ta'lim muassasalari va oila o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mazmunini asoslash;

- maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuvni qaror toptirish orqali istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash.

Mavzuning metodlari:

- nazariy-qiyosiy tahlil;
- pedagogik kuzatish;
- pedagogik tajriba;
- savol-javob;
- suhbat;

Mavzuning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Respublika Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari, Respublika Prezidenti I.A.Karimov asarlari, Xalq ta'limi vazirligining me'yoriy hujjatlari, «Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi», «O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi konsepsiyasi», Sharq mutafakkirlarining qarashlari, zamonaviy pedagog olimlarning tadqiqotlari hamda pedagogik manbalarda ilgari surilgan g'oyalar tadqiqot samaradorligini ta'minlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qildi.

Mavzuning ilmiy yangiligi:

1. Maktabdan tashqari ta'lim tizimini tashkil etish muammosi O'zbekiston Respublikasida ilk marotaba tadqiq etildi.
2. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti negizida maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotini tashkil etishning yangilangan mazmuni asoslandi.
3. Shakllangan ijtimoiy-pedagogik ehtiyojni inobatga olgan holda maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotini tashkil etish samaradorligini ta'minlovchi texnologik yondashuv asoslandi.

Mavzuning ilmiy-nazariy ahamiyati: maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotini tashkil etishning nazariy-pedagogik asoslari ishlab chiqildi; muammo mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarga pedagogik nuqtai nazardan munosabat bildirildi; maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning innovatsion andozasi yaratildi hamda so'z yuritilgan jarayonda masofaviy ta'limdan foydalanish imkoniyatlari aniqlandi; maktabdan tashqari ta'lim muassasalari va oila o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mazmuni asoslandi.

Mavzuning amaliy ahamiyati: maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotini tashkil etishning tashkiliy-texnologik asoslari ishlab chiqildi; maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotini tashkil etishning omillari aniqlandi; maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotini tashkil etishda samaradorlikka erishishga xizmat qiluvchi maxsus metodika ishlab chiqildi.

Tadqiqotning muhim nazariy g‘oyalari va amaliy natijalaridan Pedagogika fanida “Maktabdan tashqari ishlar jarayonini tashkillashtirishda foydalanish mumkin”.

Tadqiqotning strukturaviy tuzilishi:

1. Kirish,
2. Asosiy qism (2 bobdan iborat)
3. Xulosa va tavsiyalar
4. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati
5. Ilovalar.

I. Bob O'quvchilarning kasbiy rivojlanishga darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarni tashkil qilishning yo'naltiruvchi xarakteri.

1.1. Mustaqillik sharoitida ta'lim tizimida o'quvchi yoshlarni maktabdan tashqari ta'lim muassasalari to'garak mashg'ulotlariga jalb etish

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» talablaridan kelib chiqqan holda belgilangan vazifalarni ijobiy hal etish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablari binolarini yangidan qurish, ta'mirlash, tubdan ta'mirlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirishga yo'naltirilgan ijtimoiy harakatlar o'zining dastlabki samaralarini berdi.

Bu o'rinda mazkur dastur talablarining to'la ro'yobga chiqarilishida maktabdan tashqari ta'lim tizimida yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlar ham muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tish zarur.

Maktabdan tashqari ta'limni keng ko'lamda tashkil etish, bu yo'nalishda faoliyat olib boruvchi muassasalarni zamonaviy texnika va texnologiya uskunalari bilan jihozlash, ularda o'quvchilar qobiliyati va iqtidorini to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga davlat siyosati darajasida e'tiborning qaratilayotganligi soha taraqqiyotini ta'minlash imkonini bermoqda.¹

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Respublika Vazirlar Mahkamasining Qarori (1995 yil 18 fevraldagi 59-sonli) bilan tasdiqlangan «Maktabdan tashqari muassasalar Nizomi», Xalq ta'limi vazirligining hayot Qarori (1999 yil 30 iyuldagi 8/5-sonli) bilan tasdiqlangan «Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi» hamda «Maktabdan tashqari ta'limga qo'yilgan Davlat talablari» kabi muhim hujjatlar asosida tashkil etadilar.

Respublika Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ham maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Ana

¹ «Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi»-T.: 1999. 170, 101-134-betlar.

shu e'tiborning yaqqol isboti sifatida «2004-2005 o'quv yilida maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini oshirish Dasturi» ishlab chiqilganligini qayd etib o'tish zarur. Mazkur dasturga muvofiq mintaqaviy-mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik hamda pedagogik imkoniyatlarini yaxshilash va malakali pedagog kadrlar bilan to'liq ta'minlanishiga erishish muammolari har tomonlama tahlil etildi. Shu bilan birga mavjud muammolarning hal etilish yo'llari belgilandi.

Tajriba-sinov ishlari Respublika O'quvchilar saroyi, O'quvchi-yoshlar texnik ijodiyot markazlari, sayyohlik va o'lkashunoslik markazlari hamda ekologik ta'lim yo'nalishida faoliyat yuritayotgan muassasalarda olib borildi.

Dastlabki tajriba ishini amalga oshirish chog'ida aniqlanishiga ko'ra, hozirgi kunda Respublika miqyosida jami 1259 ta (570 ta maktabdan tashqari ta'lim, 380 ta sport maktablari, 309 ta musiqa maktablari) qo'shimcha ta'lim beradigan muassasalar faoliyat yuritmoqda. Ushbu ta'lim muassasalariga 13.341 nafar pedagog jalb etilgan. Olib borilgan tahlillar natijasi Respublika miqyosida yillar bo'yicha maktabdan tashqari ta'lim muassasalari hamda ularga jalb etilgan o'quvchilar sonining dinamik ko'rsatkichlari quyidagicha ekanligini ko'rsatdi

MTT muassasalari va ularga jalb etilgan
o'quvchilar sonining dinamik ko'rsatkichlari

Yillar	MTT muassasalarining soni (ta hisobida)	MTT muassasalariga jalb etilgan o'quvchilar soni (nafar hisobida)
2004	541	521690
2005	553	539483
2006	570	550044

Jadval ko'rsatkichlaridan anglash mumkinki, 2006 yilda 2004 yilga nisbatan maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining soni 29 taga, to'garaklarga jalb etilgan o'quvchilar soni esa 28354 nafarga oshgan.

Tajriba davrida maktabdan tashqari ta'lim muassasalari orasida qaysi turdagi muassasalarning hissasi ko'proq ekanligini aniqlashga ham urinildi. Zero, bu boradagi ma'lumot muayyan yo'nalishlarda maktabdan tashqari sharoitda to'garaklar faoliyatini yuritish imkoniyati mavjudligini belgilab beradi. Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan jami 570 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining turi ularning faoliyat yo'nalishlari bo'yicha quyidagichadir

MTT muassasalarining turi

№	MTT muassasalarining turi	Soni	Foiz ko'rsatkichi
1.	O'quvchilar ijodiyoti markazlari	258	45,2
2.	Texnik ijodiyot markazlari	120	21,1
3.	Ekologiya markazlari	101	17,7
4.	Yosh sayohatchilar va o'lkashunoslar markazlari	54	9,5
5.	Boshqa turdagi (sog'lom avlod markazlari, til markazlari, kasbga tayyorlov markazlari va boshqa) muassasalar	37	6,5

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatida samaradorlikka erishishning muhim omillaridan biri bu ularning malakali, mahoratli pedagog kadrlar bilan ta'minlanganligi sanaladi. Binobarin, ularning mutaxassislik bilimlarini chuqur o'zlashtira olganliklari hamda kasbiy faoliyatga nisbatan ijodiy yondasha olishlari, shuningdek, tizim sub'yektlari o'rtasidagi munosabatning o'zaro hamkorlikka

asoslanishi to'garaklarga jalb etilgan o'quvchilarning qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Ishning birinchi paragrafida qayd etib o'tilganidek, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatining samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri bu ularning faoliyatiga malakali pedagog kadrlarni jalb etish, uzluksiz ravishda ularning kasbiy malakalarini oshirib borish sanaladi.

Shu sababli dastlabki tajriba davrida maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining kadrlar ta'minoti hamda pedagog-xodimlarning ma'lumoti darajasini o'rganishga ham alohida e'tibor qaratildi. O'rganish natijasi sifatida quyidagi ma'lumotlar to'plandi.

3-jadval


MTT muassasalarining kadrlar ta'minoti va pedagog-xodimlarning ma'lumot darajasi

Ma'lumot darajasi	Soni (nafar hisobida)	Foiz ko'rsatkichi
Oliy	4580	34,3
Tugallanmagan oliy	556	4,2
O'rta maxsus	6718	50,4
O'rta	1487	11,1

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilar o'zlarining bilim va iqtidorlarini Respublika miqyosida o'tkaziladigan an'anaviy «Nafosat» (yosh qalamkashlar uchrashuvlari), «Kitobsevarlar», «O'zbekiston Vatanim manim» qo'shiq bayrami, shuningdek, badiiy va texnik ijodiyot, ekologiya, sayyohlik va o'lkashunoslik, huquqiy, iqtisodiy va boshqa yo'nalishlar bo'yicha ko'rik-tanlovlarda doimiy ravishda namoyon etib borishadi.

Respublika tanlovlarida faol ishtirok etib, faxrli 3-o'rinlarni egallagan iqtidorli o'quvchilar shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar Respublika maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan «Iqtidor banki»da jamlanadi hamda rag'batlantirib boriladi.

«Iqtidor banki»da quyidagi ma'lumotlar yig'ib boriladi:



Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchilarni to'garaklarga jalb etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublika xalq ta'limi vazirligi hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda har yili ushbu maskanlarga jalb etilgan o'quvchilarning tarkibi tahlil etilib, qo'shimcha ravishda «Mehribonlik uylari» va alohida ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchilarni to'garaklar faoliyatiga jalb etish tadbirlari ishlab chiqiladi.

«Maktabdan tashqari ta'limga qo'yilgan davlat talablari»ga muvofiq o'quvchilarning qo'shimcha bilimlarni egallashlari, muayyan yo'nalishlar bo'yicha mavjud qiziqish hamda ehtiyojlarini yanada rivojlantirish, ularni qondirish, ijodiy imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish maqsadida maktabdan tashqari ta'lim

muassasalariga uslubiy yordam ko'rsatish, to'garaklarni dasturlar, tavsiyalar, o'quv va metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash joriy vazifalardan sanaladi. Bugungi kunda Respublika Ta'lim Markazi, shuningdek, viloyat Xalq ta'limi bo'limlari qoshida faoliyat yurituvchi metodik Markazlar, tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari tasarrufidagi metodik kabinetlar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining pedagog-xodimlari tomonidan 824 nomdagi dastur, uslubiy qo'llanma va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan amaliyotda samarali foydalanib kelinmoqda. Mazkur muassasalar faoliyatini takomillashtirish yo'lida 429 nafar pedagog-xodimlar ilg'or ish tajribalarining ommalashtirilishiga erishilgan.

Joylarda ilmiy-metodik axborotnomalar chop etilishining yo'lga qo'yilganligi maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining pedagog-xodimlarini metodik bilimlar bilan qurollantirish, ularning kasbiy malakalarini oshirishga yordam bermoqda. Viloyatlar maktabdan tashqari ta'lim muassasalari markazlari qoshida «Maktabdan tashqari ta'limga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish markazi»ning faoliyati yo'lga qo'yilishi natijasida pedagog-xodimlar tomonidan texnologik yondashuvlar mohiyatini o'zlashtirish, bu boradagi ilg'or tajribalarni ommalashtirish, mavjud muammolarni birgalikda hal etish imkoniyatlari yuzaga kelmoqda.

Ayni vaqtda maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini ta'minlash jarayonida ommaviy axborot vositalari xizmatidan ham samarali foydalanib kelinmoqda. Jumladan, 2006 yilda «Respublikada maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini sermazmun o'tkazishda qo'shimcha ta'lim muassasalarining o'rni va kelgusi istiqbollari» ruknida yigirmadan ortiq ommaviy axborot vositalari orqali 30 dan ortiq chiqishlar tashkil etildi. Ommaviy axborot vositalari sahifalarida ushbu yo'nalishdagi ta'lim muassasalari oldida turgan vazifalar, erishilgan yutuqlar hamda mavjud kamchiliklarning uzluksiz yoritilib borishi soha mutaxassislarining imkoniyatlarini muayyan nuqtada to'plash hamda ularni kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda «o'z xalqi tarixini chuqur bilish, ota-bobolar merosini o'rganishni rivojlantirish, O'zbekistonda yashovchi xalqlarning milliy merosiga bo'lgan

munosabatlarini shakllantirish, mustaqil Vatanga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, tarix va madaniyat yodgorliklarini avaylab-asrashga yordam berish»ni nazarda tutgan holda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari qoshida muzeylar tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tahlil natijalarining ko'rsatishicha, bugungi kunda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida turli yo'nalishlar bo'yicha 121 ta muzey faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, «Maktab muzeylarini tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslari» nomli metodik tavsiya tayyorlanib, joylarga yetkazilgan.

«Tarbiyasi og'ir», shuningdek, o'quv fanlarini o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarni ularning shaxsiy imkoniyati, qiziqishi yoki muayyan darajadagi qobiliyatlarini inobatga olgan holda to'garaklarga jalb etish va ularda kasbiy ko'nikmalar hosil qilish ham maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda ko'zda tutilgan muhim masalalardan biri sanaladi. Shu sababli joylarda «O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish pedagogik-psixologik tashxis markazlari»ning ko'magi va tavsiyalariga ko'ra ularning muayyan yo'nalishda kasb yoki hunar egallashlari uchun sharoit yaratib berilmoqda.

Hozirda joylarda tashkil etilgan til markazlari Respublika uzluksiz ta'lim, shuningdek, maktabdan tashqari ta'lim tizimlarini rivojlantirish, iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, xalqaro ko'rik-tanlovlarda ularning iqtidorlarini namoyon etish borasida Angliya, Fransiya, Yaponiya, Koreya, Germaniya hamda bir qator MDH mamlakatlari (Rossiya, Qirg'iziston, Tojikiston)ning elchixonalari bilan samarali hamkorlik qilmoqda.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari to'garaklarining a'zolari doimiy ravishda Yaponiya, Hindiston, Chexiya, Misr Arab Respublikasi, Shvetsariya o'tkazilgan tanlov hamda Xalqaro ko'rgazmalarda faol ishtirok etishib, faxrli I-III o'rinlarni egallashga muvaffaq bo'lganlar. Shuningdek, maxsus sertifikatlar bilan taqdirlanganlar.

Erishilgan yutuqlar bilan birga ayrim muammolar ham mavjud. Chunonchi:

- pedagogika oliy ta'lim muassasalarida maktabdan tashqari ta'lim muassasalari uchun pedagoglar tayyorlovchi maxsus fakultetlar mavjud emasligi bois aksariyat

to'garak rahbarlari (70 foiz) mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumotga ega emaslar;

- pedagog xodimlar, to'garak rahbarlari va mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj talab darajasida qondirilmayabdi;

- 70 foiz maktabdan tashqari ta'lim muassasalari moslashtirilgan binolarda faoliyat olib borayotgan bo'lib, ular moddiy ta'minotga muhtoj;

- to'garaklarda tashkil etiluvchi mashg'ulotlar yetarlicha xomashyo yoki mablag'lar bilan ta'minlanmayabdi.

Asoslovchi tajriba jarayonida maktabdan tashqari ta'lim tizimida mavjud bo'lgan kamchiliklarga barham berish maqsadida ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Ular quyidagilardan iborat:

- maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash masalasiga mahalliy hokimliklarning e'tiborini jalb etish va mintaqaviy imkoniyatlardan foydalanish;

- Respublikada maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida to'garak mashg'ulotlarini olib boradigan pedagog kadrlar tayyorlaydigan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari tarmog'ini kengaytirish;

- o'quvchi-yoshlarni Respublika hududida mavjud bo'lgan tarixiy qadamjolar, me'moriy obidalar, bog'lar (mas., «Botanika bog'i»), qo'riqxonalar hamda muzeylar faoliyati bilan tanishtirish va bu jarayonda transport xizmatidan foydalanishda muayyan imtiyozlarni yaratish;

- to'garak, studiya va klublardagi mashg'ulotlarni tashkil etishda o'quvchilarning umumiy soniga ko'ra pedagoglar uchun 0,5-1,5 stavka hajmida yuklanmalar ajratiladi. Bu hajm pedagoglarning kasbiy faoliyatni tashkil etish ehtiyojlarini to'la qondira olmaydi. Shu sababli mashg'ulotlarni tashkil etish uchun belgilanuvchi yuklanmalar hajmini bir qadar oshirish maqsadga muvofiq.

Dastlabki tajriba natijalarining ko'rsatishicha, mustaqillik yillarida maktabdan tashqari ta'limni keng ko'lamda yo'lga qo'yish va uni «Kadrlar tayyorlash milliy

dasturi» talablarini bajarishga yo'naltirishga alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunda tizimda ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq bu sohada ayrim muammolar ham mavjudki, ularni tezkor bartaraf etish maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatini samaradorligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini ilmiy asosda tashkil etish asosida ularning jamiyat uchun yot g'oyalar ta'siriga tushib qolish yoki ular tomonidan qonunbuzarlik holatlarining oldini olishga yordam beradi. Bu holat esa ijtimoiy maqsadlarga muvofiq keladi.

Maktabdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida to'garak o'quv dasturidan o'rin olgan mavzularni kengaytirish va to'ldirish maqsadiga yo'g'rilgan darsdan tashqari o'tkaziladigan ixtiyoriy o'qitish shaklidir.

O'quvchilarning fan asoslarini chuqur va mustahkam o'zlashtirishlariga erishish, qo'shimcha o'quv adabiyotlari, ko'rgazmali vositalar yordamida mustaqil ishlarini tashkil etish, belgilangan mavzular bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazish, o'quvchilarning qiziqishlari va bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etish, ularning ijodiy qobiliyatlari, mustaqil va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, kasbga yo'llash, o'quvchilarning ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish, o'qishni unumli jismoniy va aqliy mehnat bilan uzviy bog'lash maqsadida umumiy to'garak maktabdan tashqari mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Maktabdan tashqari mashg'ulotlarning uch xil turi mavjud:

1. Ayrim o'quvchilar bilan yakka tartibda olib boriladigan mashg'ulotlar
2. O'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan mashg'ulotlar.
3. O'quvchilar bilan ommaviy ravishda olib boriladigan mashg'ulotlar.

Yuqorida qayd etilgan maktabdan tashqari mashg'ulotlarning turlari bir-biri bilan uzviy bog'langan, bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi.

Maktabdan tashqari mash-	Maktabdan tashqari mashg'ulotlarning mazmuni
-------------------------------------	---

g'ulotlarning turi	
Ayrim o'quvchilar bilan yakka tartibda olib boriladigan mashg'ulotlar	To'garaklarda qo'shimcha o'quv adabiyotlarini o'rganish, EHMning ta'lim beruvchi, modellashtirilgan, nazorat dasturlari yordamida bilimlarini sinab ko'rish, multimedialar vositasida ijodiy izlanishlarini tashkil etish, maktab tajriba maydonchalarida tirik organizmlardagi mavsumiy o'zgarishlar, belgilarning irsiylanishini o'rganish maqsadida kuzatish va tajribalar o'tkazish, turli mavzularda ma'ruzalar va ko'rgazmali materiallar tayyorlash.
O'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan mashg'ulotlar	5-6 sinflarda «Barkamol Shaxs», 7-sinfda «Yosh sportchilar», 8-sinfda «Yosh raqschilar» va 9-11 sinflarda «Yosh shoirlar» to'garagini tashkil etish
O'quvchilar bilan ommaviy ravishda olib boriladigan mashg'ulotlar.	Turli mavzulardagi kechalar, bayramlar, ma'ruzalar, «O'tkir zehnlilar mushoirasi», viktorinalar, «Ko'kalamzorlashtirish haftaligi», «Bog' haftaligi» «Hosil bayrami» o'tkazish

Ayrim o'quvchilar bilan olib boriladigan maktabdan tashqari mashg'ulotlar ularning xohish, istagi, ehtiyoji va qiziqishlari hisobga olingan holda biologiya o'quv xonasida, tirik tabiat burchagida, maktab tajriba maydonida, informatika xonasida, jamoa va fermer xo'jaligi dalalarida o'tkazilishi mumkin. Ushbu mashg'ulotlar o'quvchilarning qo'shimcha o'quv adabiyotlarini o'rganish, ijodiy izlanishlarini tashkil etish, sinov - tajriba maydonlarida muayyan mavzular bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazish, ma'ruzalar va ko'rgazmali materiallarni tayyorlash kabilarga bag'ishlanadi.

Jumladan, botanikadan ayrim o`quvchilar bilan tashkil etiladigan mashg`ulotlarda quyidagi masalalarni o`rganish mumkin.

O`quvchilar o`zlarining xohish irodasi, qiziqishlariga muvofiq holda, ushbu mavzularning birini tanlab oladi va o`qituvchi bilan hamkorlikda tuzilgan reja asosida ish olib boradi. Olib borilayotgan ishlar va ularning natijalarini biologiya o`qituvchisi nazorat qilib boradi.

Botanikadan ayrim o`quvchilar bilan tashkil etiladigan mashg`ulotlar

rejasi

	Mashg`ulot mavzusi	Mashg`ulot o`tkaziladigan joy	Bajaradigan shaxs
	To`g`arak qo`shimcha o`quv adabiyotlari ustida mustaqil ishlash, muayyan mavzularda matn, ma`ruza tayyorlash.	Kutubxona, biologiya o`quv xonasi	O`quvchilar
	EHMning ta`lim beruvchi, modellash-tirilgan, nazorat dasturlari yordamida bilimlarini sinab ko`rish, multimedialar vositasida ijodiy izlanishlarni tashkil etish.	Informatika o`quv xonasi	O`quvchilar
	«Dorivor o`simliklar» multimediasini vositasida o`quvchilarning ijodiy izlanishlarini tashkil etish.	Informatika o`quv xonasi	O`quvchilar
	O`zbekiston «Qizil kitobi»ga kiritilgan o`simliklarning biologiyasini o`rganish.	Biologiya o`quv xonasi	O`quvchilar
	Turli muddatlarda ekilgan o`simliklarning biologiyasini o`rganish.	Maktab tajriba maydonchasi	O`quvchilar

	Issiqxonalarda o`stiriladigan manzarali, sabzavot, tsitrus va boshqa ekinlarning o`sishi, rivojlanishiga ekologik omillarning ta`sirini o`rganish	Maktab tajriba maydonchasi va issiqxonalar	O`quvchilar
	O`simliklar ustida kuzatish va tajribalar o`tkazish.	Maktab tajriba maydonchasi, tirik tabiat burchagi.	O`quvchilar
	O`simliklardan gerbary va kolleksiyalar tayyorlash	Maktab tajriba maydonchasi, biologiya o`quv xonasi	O`qituvchi va o`quvchilar

«Odam va uning salomatligi» o`quv fani bo`yicha ayrim o`quvchilar bilan olib boriladigan maktabdan tashqari mashg`ulotlar o`quvchilarning o`zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash, uni amaliyotga qo`llash, kasbga yo`llash, tajriba va kuzatishlar o`tkazish, mantiqiy, mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko`nikmalarini rivojlantirish, sog`lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu mashg`ulotlarda o`quvchilarning mustaqil o`qishlari uchun sog`lom turmush tarzi, turli kasalliklarning kelib chiqish sabablari, sport va jismoniy mashqlarning inson salomatligiga ta`siri haqidagi ilmiy-ommabop nashrlar, «Sihat-salomatlik», «Fan va turmush» va boshqa jurnal sahifalarida chop etilgan maqolalar, odam organizmining tuzilishi bo`yicha tayyorlangan multimedia, inson salomatligi entsiklopediyalarini o`rganish tavsiya etiladi.

O`quvchilarning o`z salomatliklarini asrash, sog`lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida muayyan mavzularda kuzatishlar o`tkazish tavsiya etiladi. Jumladan, o`quvchilarga «Sport va jismoniy mashqlarning odam organlar sistemasiga

ta'sirini o'rganish» bo'yicha kuzatish o'tkazish tavsiya etiladi. Kuzatish natijalarini ushbu jadvalga yozish va xulosa chiqarish zarurligi o'qtiriladi.

Sport va jismoniy mashqlarning odam organlar sistemasiga ta'sirini o'rganish.

Organlar sistemi	Ertalab	Normal holatda	Yugurganda		10 kg gantel ko'targanda		Xulosa
			0 m	00m	min	0 min	
Yurak ishi (pul's soni)							
Qon bosimi							
Bir minutda olingan nafas soni							

O'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan maktabdan tashqari mashg'ulotlarga biologiya o'quv xonasini jihozlash, tabiatga mavzuli ekskursiyalar tashkil etish, o'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan ko'rgazmali vositalar tayyorlash va «Yosh biologlar» to'garakning ishi misol bo'ladi.¹

Mazkur to'garakning didaktik maqsadi o'quvchilarning o'quv fanlariga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, qo'shimcha o'quv adabiyotlari ustida mustaqil ishlash, tabiat va jamiyatga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirish, ongli ravishda kasb tanlashga yo'llash, mustaqil va ijodiy fikr yuritish, tajriba qo'yish va kuzatishlar o'tkazish ko'nikmalarini rivojlantirish sanaladi.

To'garak tashkil etiladigan to'garak umumiy nom «Yosh biologlar» deb ataladi va o'quvchilarning o'rganayotgan o'quv fani, yoshlik va psixologik xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari hisobga olingan holda 5-6 sinflarda «Yosh botaniklar», 7-sinfda

¹ www.google.uz

«Yosh zoologlar», 8-sinfda «Yosh fiziologlar» va 9-11 sinflarda «Yosh biologlar» to'garaki tashkil etiladi.

5-6 sinf o'quvchilari bilan tashkil etiladigan «Yosh botaniklar» to'garagida quyidagi masalalarga e'tiborni qaratish tavsiya etiladi. «O'zbekistonda botanika fanining taraqqiyoti», «Ulug' alloma Ibn Sinoning dorivor o'simliklar haqidagi fikrlarini o'rganish», o'simliklarning ahamiyati va ularni asrash to'g'risidagi hikmatli hikoyalar va hadislarni o'rganish, xona o'simliklarini tasniflash, parvarish qilish va ko'paytirish, dorivor o'simliklarning biologik va ekologik xususiyatlarini o'rganish, O'zbekiston «Qizil kitobi»ga kiritilgan o'simliklar va h.k.

Quyida «Yosh zoologlar» to'garagining namunaviy ish rejasi berilmoqda. Mazkur to'garakning namunaviy ish rejasini o'qituvchi o'z bilimi, pedagogik mahoratiga tayanib to'ldirishi va o'zgacha sayqal berishi, mahalliy sharoit va o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyojini hisobga olib tegishli o'zgartirishlar kiritishi va amaliyotda qo'llashi mumkin.

1.2. Maktabdan tashqari ta'lim tizimini tashkil etishning metodik asoslari.

Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik yo'nalishlarini ilmiy asos sifatida qabul qilib, tashkil etish jarayonining ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish bugungi kunning muhim talabidir. Soha rahbarlarini maxsus bilim va malakalar bilan qurollantirish uchun maktabdan tashqari ta'lim boshqaruvining asosiy jihatlarini nazariy va amaliy nuqtai nazardan asoslash talab etiladi. Bu holat boshqaruv jarayonida vujudga keluvchi, shuningdek, maktabdan tashqari ta'lim muammolarini to'g'ri hal etishga yordam beradi.

Jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash, uning jahon maydonidagi obro' e'tiborini oshirish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga erishishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy o'zgarishlarning muhim asosi bu jamiyat hayotining barcha sohalarida olib borilayotgan tub islohotlar sanaladi. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ijtimoiy hodisa bo'lib, milliy mustaqillikni mustahkamlash hamda mustaqil Respublikaning xalqaro maydonda o'z o'rnini topishida o'ziga xos hissa bo'lib qo'shiladi. Demokratik g'oyalarga asoslangan ta'limiy islohotlar negizini maktabdan tashqari ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, uni o'quvchilarning qobiliyatini ro'yobga chiqarish hamda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashga qaratilgan harakat ham tashkil etayotganligi e'tiborga loyiqdir.

Maktabdan tashqari ta'limni haqli ravishda hozirgi jamiyatning tarkibiy qismi deb atash mumkin. U ijtimoiy jihatdan talab etilgan va jamiyat hamda davlat tomonidan o'quvchi shaxsini tarbiyalash, ta'lim berish va rivojlantirishni o'zida organik birlashtiradigan ta'lim sifatida doimiy diqqat-e'tibor va qo'llab-quvvatlashni taqozo etadi.

Bu o'rinda quyidagi haqli savol tug'iladi: maktabdan tashqari mashg'ulotlar bosqichida turgan ob'yektiv shartlangan hodisami yoki ta'lim sohasidagi o'zaro bog'lanmagan, tarqoq hodisalarni «sun'iy ravishda» birlashtiradigan sub'yektiv intellektual tuzilmami? Bu savolga beriladigan javob pedagogika fani va amaliyoti

uchun katta ahamiyat kasb etadi. Zero maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotlar O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilgan hamda uning zimmasiga mas'uliyatli vazifalar yuklangan. Mazkur vazifalarning qay darajada muvaffaqiyatli hal etilishi esa maktabdan tashqari ta'lim tizimining shakllanganlik darajasi, mazmuni hamda imkoniyatlariga bog'liq.

Maktabdan tashqari ta'lim alohida tarzda tashkil etilgan, o'quvchining imkoniyatini baholash, xohish-istagi va qiziqishini inobatga olgan holda qobiliyati va ijodiy layoqatini shakllantirishga yo'naltirilgan barqaror jarayondir. Bu jarayonda o'quvchi qobiliyatini yanada rivojlantirish, uning ichki imkoniyatlarining yanada yorqin namoyon etilishiga erishishga imkon beruvchi qulay pedagogik vaziyatni vujudga keltiradi va u tomonidan faoliyatning erkin tashkil etilishiga yordam beradi.

Pedagogik manbalarda maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotlarining o'quvchi yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy, umumiy o'rta ta'lim hamda tarbiya ishlarini tashkil etishning o'ziga xos shakli ekanligiga urg'u beriladi.

«Maktabdan tashqari ta'lim» tushunchasi birinchi marta XIX asrning ikkinchi yarmida bir qator Yevropa davlatlarida kattalar uchun xalq kutubxonalari, xalq uylari, xalq universitetlari, yakshanba maktablari, ishchi klublari va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalarning tashkil topishi bilan bog'liq holda qo'llanila boshlagan.

Sobiq Sho'ro tuzumi davrida maktabdan tashqari ta'lim xalq ta'limining umumiy tizimiga kiritilgan va uning faoliyatiga rahbarlik dastlab «Siyosiy-ma'rifiy boshqarma», so'ngra esa «Madaniy-ma'rifiy ishlar boshqarmasi» deb nomlanuvchi muassasa tomonidan amalga oshirilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tomonidan yo'lga qo'yilgan. Sobiq Ittifoqda birinchi maktabdan tashqari ta'lim muassasasi 1918 yilda Moskvada «Yosh tabiatsevarlarning biologik stansiyasi» hamda Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg)da esa «Badiiy maktab» sifatida tashkil etilgan. 1923 yildan boshlab esa o'quvchilar uylari («Pionerlar uylari» nomi bilan) tashkil topa boshlagan. 1935 yilda

esa Xarkovda birinchi o'quvchilar saroyi («Pionerlar saroyi» nomi bilan) o'z faoliyatini boshlagan.

Keyinchalik maktabdan tashqari ta'lim muassasalari davlat, jamoat hamda yo'naltiruvchi-metodik tuzilmalar sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablari va bolalar tashkilotlari bilan mustahkam aloqada faoliyat olib borgan. Bu kabi muassasalar bolalar hamda o'smirlar bilan fan, texnika, madaniyat, sport va turizm sohalari bo'yicha faoliyat yuritishlari bilan bir-birlaridan farqlangan. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining quyidagi turlari ommalashgan: o'quvchilar saroylari va uylari; kasaba uyushmalarining madaniyat uylari va klublari qoshida tashkil etiluvchi bolalar to'garaklari; bolalar xiyobonlari; maxsus ta'lim muassasalari (yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar hamda bolalar ekskursiya-turistik stansiyalari, bolalar va o'smirlar sport maktablari, bolalar temir yo'llari, yosh avtomobilchilar va yosh dengizchilar klublari, bolalar oromgohlari va boshqalar. Shuningdek, bolalar kutubxonalari, teatrlari va kinoteatrlari ham qo'shimcha ta'lim muassasalari sirasidan o'rin olgan.

Keyinchalik faoliyat yo'nalishlariga ko'ra maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga rahbarlik Xalq ta'limi, Madaniyat yoki Aloqa va avtomobil yo'llari hamda Temir yo'l vazirliklari, shuningdek, kasaba uyushmalar, jismoniy tarbiya va sport qo'mitalari va hokazolar tomonidan amalga oshirilgan.

Mazkur davrlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining faoliyatlari namunaviy dasturlar asosida yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular tomonidan quyidagi yo'nalishlardagi ishlar amalga oshirilgan:

- 1) ommaviy-tashkiliy ishlar, bayramlar, lektoriyalar, kinofestivallar, ko'riklar, tanlovlar, uchrashuvlar, ko'rgazmalar, o'yinlar va hokazolar;

- 2) yo'naltiruvchi-metodik ishlar bolalar tashkilotlari faollari, yo'riqchilar, guruh yetakchilari va boshlang'ich sinflar yo'lboshchilari (vojatiylar), pedagoglar, to'garak hamda klublar rahbarlari va boshqalar o'rtasida, shuningdek, maktabdan tashqari ta'lim yutuqlari umumlashtirish va ommalashtirish;

3) o'quv ishlari - turli to'garaklar, klublar, jamiyatlar, qo'shiq va raqs ansambllari, teatrlar, orkestrlar va boshqalar faoliyatini nazariy manbalar bilan ta'minlash.

Ushbu muassasalar tomonidan olib borilgan ishlar quyidagi mazmuniga ega bo'lgan:

1) ijtimoiy siyosiy - qizil iztoparlar otryadi, o'lkashunoslik, jangovar va mehnat shon-shuhrati muzeylari, bolalar tashkilotlari tarixi, baynalmilal do'stlik klublari, agitbrigadalar va boshqalar;

2) o'quv - to'garaklar, klublar, o'quvchilar ilmiy jamiyatlari, bolalar ijodiyoti ko'rgazmalari va hokazolar;

3) ijtimoiy foydali qurilishlar hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga asoslangan xo'jaliklarga yordam, turar-joylarni ko'kalamzorlashtirish, o'quv ishlab chiqarish brigadalari, muzeylar va ilmiy-tadqiqot muassasalarining topshiriqlarini bajarish va boshqalar;

4) jismoniy tarbiya, sport va turistik klublar, to'garaklar, jamiyatlar, spartakiadalar, harbiy o'yinlar, bolalar gazetolari sovrini uchun o'tkaziluvchi musobaqalar va hokazolar;

5) badiiy-ijodiy - ansambillar, xoreografik jamoalar, orkestrlar, qo'g'irchoq teatrlari, musiqa klublari, olimpiadalar, ko'riklar, festivallar va boshqalar.

Muammoga oid manbalarni o'rganish natijasida maktabdan tashqari ta'lim tizimini tashkil etishda quyidagi omillarning yetakchi o'rin egallashi ma'lum bo'ldi: jamiyatning ijtimoiy rivoji va ta'lim taraqqiyotiga bo'lgan ijtimoiy munosabatlar; Respublika uzluksiz ta'lim tizimi va uning mazmuni; maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tizimining shakllanish tarixi hamda xorijiy mamlakatlar tajribasi; maktabgacha ta'lim muassasalarining iqtisodiy ahvoli va moddiy ta'minoti; maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining malakali pedagog xodimlar bilan ta'minlanganlik darajasi; pedagog xodimlarning ilg'or texnologiyalardan xabardorliklari va ularni o'z faoliyatlariga faol tatbiq etish malakasiga egaliklari; ushbu ta'lim muassasalarida

o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'la namoyon etishlari uchun zarur sub'yektiv shart-sharoitlarning mavjudligi; o'quvchilarning o'z-o'zini baholash hamda o'z ustida ishlash imkoniyatlariga egaliklari; maktabdan tashqari ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etishda oila va keng jamoatchilik o'rtasida o'zaro hamkorlikning yo'lga qo'yilganligi va boshqalar.

Soha yo'nalishidagi eng asosiy muammo-boshqaruv tizimini soddalashtirish, uning turdosh tuzilmalarini birlashtirish, ortiqcha oraliq bo'g'inlarni qisqartirish, muayyan bosqichda faoliyat yurituvchi har bir muassasa imkoniyatlaridan oqilona foydalanish eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda maktabdan tashqari ta'lim muassasasining jiddiy nuqsoni muassasa boshqaruviga oid ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilmayotganligidir. Ushbu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarga e'tibor qaratganligini alohida keltirish maqsadga muvofiqdir: «Biz davlat qudratiga hokimiyat va boshqaruv idoralarining soniga qarab emas, aksincha, ularning ish tizimi qanchalik samara berayotganiga, ular faoliyatining qonuniy asoslari qay darajada shakllanishiga qarab baho berishimiz lozim».¹

Boshqaruv tizimida yangicha ijtimoiy qarashlar hamda konservativ-eskicha ish uslublari, shuningdek, ular o'rtasida keskin qarama-qarshiliklar ko'zga tashlanayotgan mavjud sharoitda Respublika maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ham boshqaruvni nazariy va tashkiliy-pedagogik jihatdan takomillashtirish asoslarini ishlab chiqish zarurati tug'ildi.

Tabiiyki, mazkur masalani ijobiy hal etishga qisqa muddatlarda erishish, uning mavsumiy xarakter kasb etishi va sun'iy shaklga ega bo'lishining oldini olish shu kunning dolzarb talabidir.

Uzluksiz ta'lim shuningdek, maktabdan tashqari ta'lim tizimi boshqaruvi muammolarining o'rganilganlik darajasi tahlil etilar ekan, bu yo'nalishda qator monografiya va metodik qo'llanmalarning chop etilganligi, ma'lum tadqiqotlar olib borilganligi aniqlandi. Bunday tadqiqotlar sirasiga N.V.Kuzmina, N.N.Tarasevich,

¹ Karimov I.A.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston, 1997. 112-123-betlar.

J.G'.Yo'ldoshev, R.Sh.Ahliddinov, A.Akmalov, K.Zarifov, H.Q.Yo'ldoshev hamda Y.V.Vasilyevlarning ilmiy izlanishlarini kiritish mumkin.

J.G'.Yo'ldoshevning ishida jamiyat hayotida yuz bergan yangi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, yangilanishlar zaminida ta'lim tizimi, shu jumladan, boshqaruv organlarining o'rni, ta'limiy boshqaruvning maqsadi, yo'nalishlari, vazifalari, tamoyillari ochib berilgan. Muallif mavjud tajribaga tayangan holda ta'lim tizimini takomillashtirish yo'llarini ko'rsatib bergan.

K.A.Qaraqulovning fikricha, xalq ta'limi tizimini ilmiy tashkil etish jamiyat rivojlanish qonuniyatlari va qonunlariga suyanib, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotidagi mavjud daraja, imkoniyat va istaklarni inobatga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Tadqiqotchi H.Q.Yo'ldoshevning ishida O'zbekistonda xalq ta'limi tizimida voyaga yetmaganlar huquq ¹buzarligining oldini olishda ijtimoiy-profilaktik boshqaruvning ahamiyati, nazariy-metodologik asoslari batafsil yoritilgan. Ishda umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari, «Oila, mahalla, maktab hamkorligi» tizimida o'quvchilar tartib va qonunbuzarligini tashkiliy-pedagogik jihatdan tashkil etishning o'ziga xosligi ochib berilgan.

N.V.Kuzminaning tadqiqot ishida maktabdan tashqari ta'lim muassasasi rahbarining pedagogik jamoa va o'qituvchilar bilan muomalasi masalalari tahlil etilgan bo'lib, unda pedagoglar jamoasini to'g'ri tashkil etish talabchanlik, oqilona ravishda bo'ysunish me'yorlarini belgilash, ularga amal qilish shartlarini ishlab chiqish, shuningdek, har bir muassasaning erkinligi, tashabbuskorligi va ijodkorligini qo'llab-quvvatlashga bog'liq ekanligiga alohida urg'u berilgan. Maktabdan tashqari ta'lim muassasasi rahbari va pedagogik jamoa o'rtasidagi munosabat mazmuni, muomala madaniyati shartlari batafsil tahlil etilgan.

I.Tursunov, R.Asldinov, B.Saymon, B.Rebus, A. Nayn, P. Xerst va boshqalarning ishlarida xalq ta'limi tizimini oqilona tashkil etish muammolari tahlil etilar ekan, boshqaruvga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirish yo'llari ko'rsatib

¹ Xasanboeva O. va boshqalar «Pedagogika tarixi»-T: 2001. 45-bet.

beriladi. Mualliflar asosiy e'tiborni boshqaruvda ta'lim tizimi bo'g'inlarining o'zaro bog'liqligi, ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni ishga olish shartlari, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoni boshqaruvini takomillashtirish, boshqaruvda pedagogik texnologiyalardan foydalanish va boshqa qator dolzarb masalalarning yechimlari to'g'risida so'z yuritilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tizimida boshqaruvning muhim konseptual asoslari va nazariy modelini yaratish asosiy ijtimoiy maqsad emas, balki mavjud ijtimoiy-pedagogik muammolarni ijobiy hal qilish, tizimni samarali tashkil etishning nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil etish, uning samaradorligini oshirishga oid takliflarni ilgari surish va yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Tashkil etishning lug'aviy ma'nosi quyidagicha: tashkil etish - bu harakatga rahbarlik qilish, biror faoliyatning borishi va yo'nalishiga ta'sir ko'rsatishdir. Demak, boshqaruv - bu odamlarni birlashtiradigan, ularning kuch-g'ayratlarini umumiy natija (maqsad)larga erishish sari oqilona tashkil qiladigan, maqsad sari yo'naltirilgan faoliyatdir.

Manbalarda «boshqaruv» tushunchasi bir necha variantlarda qo'llaniladi. Masalan, R.Ahliddinov ushbu tushunchaga shunday ta'rif beradi: «Boshqaruv - ma'lum sharoitda har bir xodim, guruh yoki tashkilot faoliyatiga bevosita ta'sir etuvchi, imkoni boricha yuqori, yaxshi natijalarga erishishga qaratilgan jarayon hisoblanadi».

«Boshqaruv» tushunchasi, yana shuningdek, turli shakllarda qo'llaniladi. Ular orasida eng ommaviysi «menejment». Menejment bu mutaxassisning kasbiy layoqatigina emas, balki uning ijodiy qobiliyati, tafakkur darajasi, irodasiga asoslanuvchi tashkil etish san'atidir. Ta'lim menejeri bu resurslar topish, ta'lim jarayonini loyihalash, dasturlashtirish va tashkil etish (ishga tushirish) qobiliyatiga ega bo'lgan boshqaruvchi bo'lib, ayni vaqtda maktabdan tashqari ta'lim muassasasi rahbarining qobiliyatli menejir bo'la olishi muhim sanaladi.

Boshqaruvda quyidagi tamoyillar ustuvor o'rin tutadi:

1. Demokratik sentralizm (ilmiy tashkil etish tamoyili sifatida jamiyat taraqqiyotining ob'yektiv qonuniyatlari, uning muhim xususiyatlari va maqsadlarini ifodalaydi; uning iqtisodiy asosi ishlab chiqarish, ijtimoiy mulkchilik, iqtisodiyotning rejali rivojlanish xususiyatidan iborat; ijtimoiy-siyosiy asosi jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini tashkil etadi; u milliy, kasbiy, demografik va boshqa omillarga muvofiq ijtimoiy sub'yektlarning ehtiyojlarini inobatga oladi va ularni qondiradi).

Boshqaruvning demokratik uslubining asosiy jihatlari: qaror qabul qilishda jamoatchilik fikriga tayanish; jamoa a'zolarining erkin faoliyat yuritishlari; shaxsiy mas'ullik va vazifalarning aniq belgilanganligi; jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro ishonch va shaxslararo aloqalarning mustahkamligi; maqsad va birgalikdagi faoliyat istiqbollarning jamoa asosida belgilanishi; vazifalarni amalga oshirishda o'zaro yordam ko'rsatish va boshqalar.

Markazlashtirishga asoslangan tadbirlar majmui boshqaruvning kasbiy darajasini oshirish, mintaqa TM faoliyati tashkil etish va yo'naltirishni takomillashtirish, TMni ilmiy asosda tashkil etish samaradorligini oshiradi; TMga metodik rahbarlik qilish holatini yaxshilaydi; TM moddiy-texnik bazasini mustahkamlaydi; yagona rejalashtirishni joriy etish imkonini beradi.

2. G'oyaviylik va ilmiylik tamoyili. Ta'lim tizimini tashkil etishda milliy istiqlool g'oyasi va mafkura asoslariga asoslanib ish ko'riladi. Binobarin, milliy istiqlool g'oyasi va mafkurasi eng oliy ijtimoiy maqsad - barkamol shaxsni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

3. Shaxsiy mas'ullik. Ta'lim xodimlarining mas'ulliklari, tashkilotchiliklari, ijodiy faolliklariga bo'lgan talabchanliklari va tashabbuskorliklari ta'lim muassasasida nafaqat mehnat intizomini mustahkamlaydi, shu bilan birga ishlab chiqarish (ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish)ga yo'naltirilgan kasbiy hamda ijodiy faoliyat samarasini ham ta'minlaydi.

Boshqaruv o'ziga xos bir qator xususiyatlarga ega. Ular quyidagilardir:

- 1) ob'yekt va sub'yektlarning o'zaro o'ziga xos munosabati, boshqaruv ob'yekti o'z navbatida sub'yekt hamdir;
- 2) chegaralangan va chegaralanmagan ish vaqtining aniq nisbati;
- 3) mehnatni rag'batlantirish xususiyatlari;
- 4) maktab boshqaruvining iqtisodiy, tashkiliy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik metodlari rolining oshishi.

Boshqaruvda boshqaruv sub'yekti tomonidan xodimlarga ta'sir ko'rsatish orqali amalga oshiriladigan barcha harakatlar yig'indisi rahbarlik deb ataladi. Lekin rahbarlik boshqaruvning barcha jihatlarini o'zida mujassamlashtirmaydi, rahbarlik uning faqat bir qismidir. Rahbarlik ta'lim muassasasi jamoasiga, uning alohida olingan a'zolariga o'quv rejalari, dasturlari hamda shaxsiy loyihalarini bajarish maqsadida yo'naltirilgan pedagogik ta'sirdir.

Ta'lim muassasasining rahbari bu maqsadlar (muassasaning faoliyat ko'rsatishi, rivojlanishi, ayrim bosqichlarga xos, shaxsiy boshqaruvchilik faoliyatiga oid) asosida ishlay oladigan, shuningdek, o'zi ham aniq va anglangan maqsadlarni ilgari sura oluvchi sub'yekt bo'lishi zarur.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasasini tashkil etishda quyidagi jihatlar ustuvor ahamiyatga ega: rejalashtirish, bashorat qilish, nazorat, monitoring, motivatsiyalash, ekspertizadan o'tkazish, jamoatchilik bilan kommunikativ aloqa va boshqalar. Ta'limni demokratlashtirish sharoitida boshqaruv faoliyati mazmunida quyidagi jihatlar ham aks etadi:

- 1) huquqlari har tomonlama himoya qilingan sharoitda sub'yektlar tomonidan o'zlarini professionallashtirishning og'ishmay bajarilishi;
- 2) o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish jarayonida pedagogik jamoa har bir a'zosining faol ishtirokini ta'minlashga erishish;
- 3) o'quv-tarbiya jarayonida yaratuvchi sub'yektlarning o'zaro munosabatlaridagi xususiyatlarni aniqlash.

Bugungi kunda boshqaruv jarayonining mohiyatini yoritishga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Aksariyat holatlarda boshqaruv rahbarlik qarorlarini qabul qilish, ularni amaliyotga tatbiq etish, ta'lim jarayonining o'zi, uning in'ikosi yoki natijasi sifatida talqin etilmoqda. Maktabdan tashqari ta'lim tizimini pedagogik tashkil etish tizimlilik, sikllilik, uzluksiz, vorisiylik hamda demokratik sentralizm tamoyillariga asoslanadi.

Aksariyat manbalarda tizimli boshqaruv boshqaruv jarayonining to'g'ri tashkil etilishini ta'minlovchi asos sifatida e'tirof etiladi. Binobarin, uni muayyan tizim asosida tashkil etish (tizimli tashkil etish) eng to'g'ri yo'l sifatida e'tirof etiladi. Maktabdan tashqari ta'lim tizimi - jamiyat tomonidan yaratiladigan ijtimoiy-pedagogik tizim bo'lib, u ijtimoiy buyurtma asosida faoliyat ko'rsatadi, turli yo'nalishlarda xizmatlarni taklif etadi, o'quvchilarning doimiy o'zgarib, takomillashib boruvchi ehtiyojlarini qondiradi. O'quvchilarning qiziqishlariga qarab faoliyat turi, shakl, metod va vositalarini, shuningdek, bolalar jamoa (birlashma, uyushma)larini tanlash, yangi ijtimoiy tajribani o'zlashtirish, noformal muloqot qilish, bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish erkinligini ta'minlaydi hamda har bir o'quvchining ijodiy rivojlanishi, ijtimoiy o'zgarishlarga moslashishi va madaniy qadriyatlardan bahramand bo'lishi uchun sharoitlar yaratib beradi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasasiga nisbatan ochiq ijtimoiy-pedagogik tizim deb yondashishning bir qator sabablari mavjud. Zero, u:

- boshqa ijtimoiy tashkilotlar kabi jamiyat tomonidan tashkil etiladi, davlat, jamiyat, oila hamda shaxs manfaatlari, ehtiyojlarini hisobga olgan holda buyurtma asosida faoliyat ko'rsatadi;

- ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqqan holda faoliyat yuritadi, oldida turgan muayyan maqsad hamda vazifalar asosida o'zining ijtimoiy rolini bajaradi, jamiyat rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatadi;

- o'quvchi, pedagog va ota-onalarsiz mavjud bo'lmaydi va jamiyat tomonidan ajratiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy resurslar (moliyaviy, moddiy, texnologik, axborot, kadrlar va boshqalar)siz faoliyat yurita olmaydi;

- uning faoliyati samaradorligi boshqa ta'lim institutlarining muvaffaqiyatli ishlashlari, shuningdek, jamiyat tomonidan ularga ko'rsatiladigan xizmatlar darajasiga bog'liq;

- uning jamiyatga bo'lgan ta'siri yo'nalganlik xususiyati va ijtimoiy-pedagogik faoliyatning keng diapazoniga ega.

Maktabdan tashqari ta'lim tizimini tashkil etishni rejalashtirish jarayoni maqsadlarni uzluksiz takomillashtirib borish (tuzatish va aniqliklar kiritish)ga yordam bersa, nazorat umumiy jarayonning oldinga siljishini ta'minlaydi.

Shunga ko'ra boshqaruv jarayonida quyidagi besh jihat ustuvor xarakterga ega: a) qarorlarni qabul qilish;

b) qarorlarni e'lon qilish;

v) imtiyozlar va rag'batlantirish usullaridan birgalikdagi faoliyatni takomillashtirishda foydalanish;

g) sub'yektlar va rahbarlar orasida vazifalarni to'g'ri taqsimlash;

d) sub'yektlar va rahbarlar maqsad, vazifalarining muvofiqligini aniqlash.

Tadqiqotchi U.Inoyatovning tadqiqotida kasb-hunar kollejlari ta'limini tashkil etish va sifatini nazorat qilish masalalari o'rganilar ekan, boshqaruv samaradorligiga quyidagi shart-sharoitlarning mavjudligi asosidagina erishish mumkinligiga alohida urg'u beriladi:

- jamoa faoliyati darajasini (me'yoriy, qayta shakllantiruvchi-ijodiy xususiyatlariga ko'ra) aniq belgilash;

- ta'lim muassasasida kechayotgan jarayonlar samarasini oshirishga xizmat qiluvchi imkoniyatlarni uzluksiz izlash, ta'lim muassasasi sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning mohiyatini tahlil qilish;

- nazarda tutilayotgan harakatlarni amalga oshirishga rahbarlar e'tiborini qaratish;
- boshqaruv jarayonini aniq, ob'yektiv axborotlar bilan ta'minlash;
- o'qituvchilar hamda o'quvchilar faoliyati natijalarini baholashda ko'p qirrali yondashuvlarni qo'llash.


Maktabdan tashqari ta'lim muassasasining mavjudligini ta'minlashga nisbatan ikki xil yondashuv maqbul sanaladi, ya'ni:

1) ta'lim muhiti - shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadigan barcha shart-sharitlar, imkoniyatlar, resurslar yig'indisi;

2) ta'lim muhiti - berilgan namuna bo'yicha bajariladigan harakatlar, shaxsni shakllantirishga imkon beruvchi ijtimoiy sharoitlar tizimidan iborat.

Garchi birinchi va ikkinchi yondashuvga ko'ra ta'lim tizimi ikki xil sharhlansa-da, har ikki yondashuvda ham ta'lim sub'yektlari, asosiy tarkibiy elementlari va ular o'rtasidagi dialektik birligi alohida e'tirof etiladi. Maktabdan tashqari ta'lim tizimiga ijodiy muhit xos bo'lib, unga ko'ra har bir o'quvchi bu jarayonning faol sub'yektiga aylanadi.

Maktabdan tashqari ta'lim tizimini tashkil etish (MTTTB) jarayonining mohiyati quyidagi loyihada o'z aksini topadi (shakl).



Maktabdan tashqari ta'lim muassasasi boshqaruv sub'yekti sanaladi va bugungi kunda uning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanmoqda:

- ijtimoiy ehtiyoj, oilalarning talablari, kishilik munosabatlari sub'yektlari, mintaqada hamda hududning manfaatlarini inobatga olish asosida muassasa rivojini ta'minlash;
- muassasa faoliyatini yanada rivojlantirishga imkon beruvchi omillar asosida faoliyatni dasturlashtirish va ta'lim innovatsion guruhlarini shakllantirish olish, ijodiy guruhlar va ijodkor pedagoglarni rag'batlantirish;
- to'plangan tajriba va an'analar asosida ta'lim jarayonining jamiyat ijtimoiy hayotining boshqa sohalari bilan o'zaro uyg'unlikda rivojlanishiga erishish.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasasini tashkil etish funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- jamiyatdagi o'zgarishlar, maktabdan tashqari ta'lim ehtiyojlari, maktabdan tashqari ta'limga tushgan ijtimoiy buyurtmani tahlil va bashorat qilish;
- maktabdan tashqari ta'lim muassasasining umumiy maqsadlari va qadriyatlari tizimini ta'riflash;
- maktabdan tashqari ta'lim (to'garak, studiya, klub va hokazo) dasturlari, o'quv rejasini ishlab chiqish va joriy etish;
- maktabdan tashqari ta'lim muassasasida ta'lim muhiti va tashkil etish madaniyatini rivojlantirish;
- maktabdan tashqari ta'lim muassasasi a'zolari kontingentini hisobga olish, tashxis qo'yish;
- maktabdan tashqari ta'lim muassasasida tadqiqotchilik, tajriba-sinov ishlari, innovatsion faoliyatni tashkil qilish;
- maktabdan tashqari ta'lim xizmatlarini targ'ib qilish;
- maktabdan tashqari ta'lim muassasasini kadrlar bilan ta'minlashni tashkil etish, ularni kasbiy qayta tayyorgarlikdan o'tkazish va malakalarini oshirish, attestatsiyadan o'tkazish, ijtimoiy himoyalash;
- muassasani moliyalash, pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatishni kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish;
- ta'lim borasida xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishiga erishish;
- muassasaga homiylik mablag'larini jalb etish;
- maktabdan tashqari ta'lim muassasasining holati va rivojlanish imkoniyatlarini kasbiy tahlil qilish va baholashning shakl va usullarini ishlab chiqish;
- maktabdan tashqari ta'lim muassasasini litsenziyalash va attestatsiyadan o'tkazishga tayyorlash.

Shunday qilib, maktabdan tashqari ta'lim tizimini tashkil etish murakkab hamda o'ziga xos jihatlarga ega jarayon sanaladi. Mazkur jarayonda asosiy maqsad maktabdan

tashqari ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishni ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni o'rganish va ta'sirchan omillarni aniqlashdan iborat. Bugungi kunda mazkur muassasalarning faoliyati mavjud ijtimoiy talablarga qay darajada javob beradi? Ishning navbatdagi paragrafida ana shu xususida so'z yuritiladi.

II. Bob. To'garak mashg'ulotlari jarayonida o'quvchini kasbiy rivojlanishga yo'naltirishning amaliy uslubi

2.1. Maktabdan tashqari ta'lim tizimida o'quvchi yoshlarni to'garak mashg'ulotlariga qiziqtirishning ijtimoiy pedagogik omillari

Respublika uzluksiz ta'lim tizimida muhim bosqich sanalagan umumiy o'rta ta'limni tashkil etuvchi muassasalar yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazishda ustuvor o'rin tutadi. Ushbu ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligiga erishish esa «Yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash» sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Maktabdan tashqari hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatlarini o'zaro muvofiqlashtirish barkamol, malakali shaxsni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishishni kafolatlaydi. Shu sababli maktabdan tashqari ta'lim tizimida umumiy o'rta ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlikka erishish chora-tadbirlarini belgilashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Har ikki ta'lim muassasalari faoliyatlarini o'rganish, tahlil etish ular o'rtasidagi hamkorlikning quyidagi yo'nalishlarda yo'lga qo'yish mumkinligini ko'rsatdi:

1. O'quvchilarning maktabdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish.
2. O'quvchilarning qobiliyat va imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarish chora-tadbirlarini belgilash.
3. Ta'lim va tarbiya jarayonining nazariy manbalar bilan boyitilishiga erishish hamda metodik ta'minotini yaxshilash.
4. Pedagoglar o'rtasida o'zaro tajriba almashilishini yo'lga qo'yish.
5. Turli mavzudagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni birgalikda uyushtirish.

Mavjud manbalarni nazariy jihatdan o'rganish, ularda ilgari surilgan g'oyalarni tahlil qilish, pedagogik amaliyotni bevosita kuzatish hamda tajriba ishlarini yo'lga qo'yish maktabdan tashqari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning quyidagi shakllarda yo'lga qo'yilishi kutilgan natijalar bera olishini tasdiqladi: ijodiy muloqotlar; doimiy harakatdagi seminarlar; pedagogik o'qishlar; ilmiy anjumanlar;

amaliy treninglar; ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan metodik birlashmalarning qo'shma yig'ilishlari; o'zaro pedagogik faoliyatni kuzatishlar; nazariy va metodik adabiyotlar taqdimotlari.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga maktabdan tashqari ta'lim muassasalari va ularning faoliyat yo'nalishlari to'g'risida ma'lumotlarni berib borish borasida katta imkoniyatlar mavjud. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilar o'rtasida suhbat, davra suhbat, uchrashuv hamda ko'rgazmalarni tashkil etish asosida maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, ular qoshida tashkil etilgan to'garaklar, to'garak a'zolari tomonidan qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, o'quvchilarning turli tanlov va ko'riklarda ishtirok etish imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumotlar berib borish ularda mavjud bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarni qondirish yo'lida amaliy harakatlarning tashkil etilishiga turtki beradi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning ijodiy ishlari ko'rgazmasi, bolalar ijodiyoti markazlari a'zolari ishtirokida bayramlar, konsert va musobaqalarning uyushtirilishi ham o'quvchilarning ushbu muassasalar faoliyatiga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytiradi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati mamlakatlari o'rtasidagi obro'-e'tibori, xalqaro maydondagi o'rni, iqtisodiy qudrati hamda intellektual salohiyatini ta'minlash muhim vazifa bo'lib, bu vazifani amalga oshirishda oila muhim rol o'ynaydi. Binobarin, oilalar mamlakat istiqbolini yaratuvchi, ertangi yorqin hayotini ta'min etuvchi komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishda ijtimoiy tarbiya maskani hisoblanadi.

«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida oilaning jamiyat rivoji hamda shaxs ma'naviyatini shakllantirishdagi rolga yuqori baho berilib, quyidagilar qayd etiladi”¹. oila jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi.

¹ Quronov M.« Milliy tarbiya»-T: “sharq”2007. 78-bet.

Oiladagi sog'lom muhit sog'lom mafkurani shakllantirishning eng muhim manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligini, o'zaro hurmat va ahillikni ta'minlash-milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo'ladi».

Insonning ijtimoiylashuvi, uning jamiyatdagi xulqiga eng samarali ta'sir etuvchi ijtimoiy institutlardan biri-oila sanaladi. Shu sababli juda qadimdanoq oilaning tarbiya-pedagogik imkoniyatlarini o'rganish ko'plab mutafakkirlar hamda zamonaviy olimlar e'tiborini o'ziga tortib kelgan.

Totalitar tuzum davrida oila umumiy vazifani bajarish, ya'ni, shaxsni davlatga bo'ysundirish vazifasini hal etishda faqat yordamchi institut sifatidagina qatnashgan bo'lib, shu sababli oila tarbiyasida milliy xususiyatlar inobatga olinmas, aksincha, umumjamiyat manfaatlariga tayangan holda ish ko'rilar edi. Pedagogika fani imkoniyatlari esa shaxsni har tomonlama rivojlantirishga emas, balki asosan ta'lim muassasalari va boshqa bolalar jamoalari faoliyatini markazlashtirishga yo'naltirilgandi.

O'zbekistonda oila, uning ijtimoiy mavqei, shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli masalalari A.q.Munavvarov, M.Inomova, O.Musurmonova, V.Karimova, O.Hasanboyeva, M.Xolmatova va boshqalar tomonidan batafsil o'rganilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini oshirishda qo'shimcha ta'lim muassasalari bilan oilalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish muhim ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu hamkorlik mazmunida o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir etuvchi ijtimoiy va oilaviy tarbiya imkoniyatlari aks etadi.

Shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning ichki imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'la ro'yobga chiqarishga alohida e'tibor qaratilayotgan mustaqillik sharoitida O'zbekistonda shaxs individualligi birlamchi ahamiyat kasb eta boshladi. Binobarin, shaxs omili birlamchi ekan, uning tarbiyasi va ijtimoiylashuvida oilaning tarbiyaviy kuchidan samarali foydalanish tadbirlarini belgilash zarur.

Binobarin, shaxs oila jamiyatning o'zaro ta'sir modelining yo'nalganligi to'g'ri hamda teskari aloqa xususiyatiga ega bo'lib, ushbu aloqaning yagona maqsadi - komil

insonni tarbiyalashga yo'naltirish talab etiladi. Shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash jarayonida oilaning iqtisodiy (ishlab chiqarish) imkoniyatlari ustuvor o'rin tutishi tan olinishi kerak. Bu holat amaliy faoliyatda boshlang'ich, tayanch negizni qayta ko'rib chiqish, oila va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqaning metodologik asoslari sirasida shaxs manfaati birlamchiligi tamoyilini o'zgartirishga olib keladi.

«Shaxs shakllanishiga ta'sir etishning ijtimoiy-ruhiy asosiga ega oila jamiyatning ajralmas bo'lagi sifatida ijtimoiy vazifalarni bajarish bilan birga o'ziga xos xususiyatlarni ham aks etadiki, bunday xislat psixologik qarama-qarshilik hamda xarakterlar to'qnashuvidan iborat ijtimoiy munosabatlardan toliqqan inson organizmi ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash uchun zarur bo'lgan mo'tadil iqlimni hosil qila oladi. Aynan shu tufayli inson oilada o'zini erkin his etadi»¹

Shaxs ijtimoiylashuvi bevosita oilada kechadi. Boshqa ijtimoiy institutlar doirasida esa mazkur ijtimoiylashuv tobora mustahkamlanib, murakkab xususiyat kasb etib boradi. Biroq, shunga e'tibor berish zarurki, oilalar jamiyatning «beminnat xizmatchisi» sifatida maydonga chiqishi emas, balki jamiyat oilalarga har tomonlama yordam berishi, ularni qo'llab-quvvatlashi lozim.

Ayni vaqtda ko'pgina rivojlangan xorijiy mamlakatlar (Fransiya, Shveysariya, Avstriya, Germaniya va boshqalar) ta'lim tajribasida ijtimoiy xizmat doirasida «bo'sh vaqt tashkilotchisi» lavozimi joriy etilgan. Bo'sh vaqt tashkilotchisi bo'lgan mutaxassis «animator» (fran. «animer» - ilhomlantirmoq, faoliyatga undamoq ma'nosini bildiradi) deb nomlanib, uning vazifasi -oilalarga ijtimoiy-pedagogik va psixologik yordam ko'rsatishdan iborat. Bo'sh vaqt tashkilotchilari guruhini asosan maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi pedagoglar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni hamda Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998 yilni «Oila yili» deb e'lon qilish to'g'risida»gi qaroridagi: «Har tomonlama jismoniy, ma'naviy va aql-zakovatli bolalar kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularda

¹Xojiahmedov A. «Mahalla odobi»-T: "Ma'naviyat" 2001. 154-157-betlar.

qat'iy bilimlar, erkin fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-muhitning boyligi va xilma-xilligi, jahon madaniyati bilan keng tanishtirish, mustahkam va sog'lom oilani shakllantirish uchun zarur sharoitlar yaratish, bolani tarbiyalash, jismoniy va ma'naviy rivojlantirish»¹ masalalarini ijobiy hal etish maqsadga muvofiq ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan «O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi Konsepsiyasi»da maktabdan tashqari ta'lim tizimini rivojlantirishda oila imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga egaligiga alohida urg'u berilgan. Mazkur hujjatda oila zimmasidagi vazifalar sirasida quyidagilar keltiriladi:

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vataniga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'r bo'lishini ta'minlash;
- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash;
- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash;
- farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash;
- bozor munosabatlariga mos bo'lgan kasb-hunar o'rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;
- bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;
- boalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqlool g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;
- bolalarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim berish;

¹ Karimov.I.A. Barkamol avlod Obekiston taraqqiyotining poydevori,-T.: "Sharq" 1991. 24-26 betlar.

- farzandlarida mavjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish;

- o'z farzandlarining maktab, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatli bo'lish va hokazolar Mustaqillik yillarida maktabdan tashqari ta'lim tizimida bu yo'nalishda faoliyat yurituvchi muassasalar hamda oila o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning yangi modellari ishlab chiqildi. Endilikda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ota-onalar bilan rasmiy aloqa o'rnatishdan voz kechib, aksincha, ularni ta'lim jarayoniga faol jalb etishga asoslangan ijtimoiy hamkorlikka tayanib ish olib bormoqdalar.

Amaliyotning ko'rsatishicha, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining oila bilan o'zaro hamkorligi istiqbol shakllarini ishlab chiqish tajribasi alohida ahamiyatga ega, chunki mashg'ulotlarni erkin tanlash asosida bola shaxsini erkin ijodiy rivojlantirish maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining xususiyati sanaladi. Shuningdek, maktabdan tashqari ta'lim tizimi pedagoglari ota-onalar tomonidan berilgan ma'lumotlar asosida o'quvchining fiziologik, psixologik va jismoniy jihatdan sog'lom bo'lib voyaga yetishlari uchun g'amxo'rlik qiladilar.

Ota-onalar va oilaning faol ishtiroki maktabdan tashqari ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib, aksariyat holatlarda ularning o'zlari farzandlarini mazkur muassasalarda ta'lim olishga yo'naltiradilar. Bu jarayonda ota-onalar tomonidan asosan quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- 1) ota-onalar bolalar tomonidan ijodiy faoliyatning tashkil etilishi uchun zarur bo'lgan material va asboblarni topish va sotib olishga moyillik bildiradilar, natijada oilada muayyan kasb yoki hunar yo'nalishi bo'yicha qiziqish doirasi kengayadi;

- 2) farzandlari ishtirok etayotgan turli yo'nalishdagi ko'rgazma, ko'rik hamda tanlovlarda bevosita qatnashish, ularni ma'naviy qo'llab-quvvatlash o'quvchilarda ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishga bo'lgan qiziqishni tarbiyalaydi;

- 3) ijtimoiy so'rovlarni tashkil etish chog'ida aniqlandiki, maktabdan tashqari ta'lim muassasasi ota-onalar va bolalarga ma'lum bo'lgan ayrim oilaviy muammolarning

ijobiy hal etilishiga yordam beradi (bu avvalo, bolalarning bo'sh vaqtlaridan oqilona foydalanmasliklari sababli kelib chiqayotgan ziddiyatlardan iborat).

Farzand ulg'ayishi bilan birga ota-onalarning ularni bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishga o'rgatish, u mansub bo'lgan mikromuhitning ma'naviy tavsifini bilishga intilishga oid tashvishlari soni ko'payadi. Ijodiy faoliyat bolalarni bir-birlariga yaqinlashtiradi, o'zaro fikr almashishga undaydi, birgalikda, hamkorlik asosida mehnat qilish, bir tomondan, ularda ijodiy sifatlarning yanada boyishiga yordam bersa, ikkinchi tomondan, ular uchun ijtimoiy ehtiyoj sanalgan - muloqot jarayoni yuzaga keladi va uning uzluksizligi, davomiyligi ta'minlanadi.

To'g'arak a'zolari bilan tashkil etilgan suhbat, munozara va savol-javoblar natijalaridan anglash mumkinki, aksariyat bolalar, shu jumladan, o'smirlar aynan maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridagina o'zlariga do'st topganlar. Tabiiyki, bu holat ota-onalarni qoniqtiradi hamda ularda maktabdan tashqari ta'limga bo'lgan xayrixohlik hissi yanada ortadi.

Bugungi kunda maktabdan tashqari ta'lim tizimida oila va qo'shimcha ta'lim muassasalari hamkorligining yangi modellari ishlab chiqilmoqda. Masalan: oilaviy turistik-o'lkashunoslik dasturlari; ota-onalar uchun mo'ljallangan ijtimoiy-huquqiy va tibbiy-pedagogik mashg'ulotlar tizimi (universitetlar, lektoriylar, praktikumlar va boshqalar); ko'p bolali oilalarning an'anaviy uchrashuvlari; ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar tarbiyalanayotgan oilalar uchun xayriya tadbirlari va konsertlar; ota-onasiz qolgan bolalarning vasiylar bilan uchrashuvlari; oilaviy klublar va ustaxonalar.

Ota-onalarni maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi konsepsiya, qo'shimcha ta'lim maqsadi va vazifalari, o'quv mashg'ulotlarining mohiyati to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor etish, ota-onalar o'rtasida pedagogik ma'rifatni tashkil etish, ularni metodik bilimlar bilan qurollantirish o'zaro hamkorlikning tarkibiy qismi sanaladi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari bilan oila (ota-onalar) o'rtasidagi hamkorlik doirasida bir qator muhim vazifalar hal etiladi. Jumladan: bolalar va

kattalarning birgalikdagi faoliyatlari ularning hamkorlikda rivojlanishi va ma'naviy boyib borishlari uchun imkoniyat yaratadi; bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishning oilaviy shakllarini takomillashtiradi.

Oila va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari bir-birlarini to'ldiradi, turli yoshdagi bolalarning ta'lim olishi va ijodiy rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni yaratadi.

Sog'lom psixologik muhit mavjud bo'lgan oiladagi kabi o'quvchilar maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ham o'zlarining himoyalaganliklarini his qiladilar. Binobarin, ta'limning mazkur tizimida har qanday zo'ravonlik, tahdid va tanbehlariga asoslanuvchi avtoritar uslub inkor etiladi.

Dialog ta'lim jarayoni sub'yektlari (pedagog va o'quvchi) o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini qaror toptirishning eng samarali shakli, o'quvchi shaxsi kamolotini ta'minlash vositasi sanaladi. Zero, u axborot, ma'lumotlar bilangina emas, balki o'y-kechinmalar, farazlar va baholar tarzida o'zaro fikr almashishni nazarda tutadi. Shaxsiyatli-mazmunli dialog pedagogik natijani qo'lga kiritishga imkon beradi.

Texnologik dasturlarni loyihalash uning mualliflari uchun mashaqqatli, biroq ijodiy jarayon. Bu jarayonda pedagog o'z bilimi, salohiyati, ko'p yillik ish tajribasiga tayangan holda izlanadi hamda o'quv fani bo'yicha yaratilgan namunaviy dasturda ko'rsatilgan talablarga mexanik ravishda ergashmaydi. Shunga ko'ra bunday metodikalar muayyan faoliyatni umumiy yoki uning ayrim qismlarini tashkil etuvchi maxsus bilimlar yig'indisi hisoblanadi.

Innovatsion yondashuv asosida asoslangan dasturlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim-tarbiya metodikalariga yaqin bo'lishi bilan birga bir-birlaridan farq qiladi. Zero, pedagogik faoliyat metodikasi «Nima qilish kerak?», «Qanday qilib?» va «Qay tarzda?» kabi savollarga javob berishga yo'nalganligi bilan pedagogning amaliy harakatlarini ifodalaydi. Shuningdek, u muayyan faoliyatni tashkil etishga qaratilgan harakatlar va ularni bajarish texnikasining mantiq, maqsadi hamda vazifalarini aks ettiruvchi harakatlar tizimi.

Pedagog faoliyatida amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan metodik tizimlardan foydalanish bilan birga o'zi tanlagan maqsad sari intilish, faoliyat samaradorligiga erishishning o'ziga xos yo'llarini asoslashi, jarayonga mustaqil yondashishi ham mumkin.

Metodik faoliyatning umumiy funksiyalari:

- mavjud bilimlar o'rtasida integratsiyani yuzaga keltirish;
- fan va ta'lim hamkorligiga erishish;
- faoliyatni loyihalash va uyg'unlashtirish;
- refleksiya iborat.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida tashkil etiluvchi metodik faoliyat quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

- ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, faoliyatni loyihalash va muassasa faoliyatini rivojlantirish jarayonida professional darajada (bo'lim metodisti, muassasaning metodik markazi yoki xizmati tomonidan)gina emas, balki pedagoglar va ma'muriyat tomonidan amalga oshiriladi;

- pedagog shaxsi, uning pedagogik faoliyati, o'quvchilar bilan o'zaro hamkorligi va muloqotini namoyon etadi;

- o'zida kasbiy faoliyat muhitining mavjud holati, o'tmish tajribalari va an'analarga bog'liqlikni ifodalaydi;

- muassasa ichida va u mansub bo'lgan tizimda faoliyatning turli yo'nalishlari hamda ular o'rtasidagi ichki farqlarni belgilaydi;

- ko'p qirrali faoliyat, muloqot hamda o'quvchi individualligini rivojlantirish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida pedagogning o'rnini ko'rsatadi; bu o'rinda pedagogning kasbiy tajribasi: «boshqalar uchun psixologik xavfsizlik, shuningdek, o'z shaxsi, o'zligini namoyon qilishi (joriy etishi) uchun qulay muhit yaratib bera olish» kabi shiorga asoslanishi zarur.

«Pedagogik texnologiya» mohiyatiga ko'ra faqat keng tushuncha va keng ko'lamli faoliyatni qamrab oluvchi omilgina emas. Texnologiya muayyan, oldindan belgilangan

maqsadlarga erishish yo'lida tashkil etiluvchi har bir harakatni aniq tavsiflovchi ilmiy tahlil va o'lchov birligidir. Metodika esa shaxsiy tajribaga tayangan holda muayyan jarayonning samarali kechishini ta'minlashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, unda umumiy jarayon emas, balki alohida olingan vaziyat uchun samarali shakl, metod va vositalar tavsiya etiladi.

Maktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ruyobga chiqarishda mahallalar, jamoat va hayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- maktabgacha ta'limning samarali psixologik pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
- bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jixatdan ta'minlash;
- zamonaviy o'quv uslubiy qullanmalar, texnik vositalar, uyinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jixatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha muassasalarining har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati kursatish imkoniyatini yaratish;
- maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

Ta'limning bu turi boshlang'ich ta'limni (I—IV sinflar) qamrab oladi hamda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim izlash, kirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat kunikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi. Umumiy o'rta ta'lim tugallanganidan keyin ta'lim fanlari va ular bo'yicha olingan baxolar kursatilgan xolda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.

Umumiy o'rta ta'limning yangicha tizimi va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

Maktabning I—IX sinflari doirasida sifatli umumiy o'rta ta'lim olishni ta'minlovchi davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, bunda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlaridan keyin olinadigan ta'lim dasturlari bilan mantiqiy bog'liqlik hisobga olinishi lozim;

-yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash;

-xududlarning jug'rofiy va demografik xususiyatlariga, shaxs, jamiyat va davlatning ehtiyojlariga muvofiq ravishda ta'lim muassasalari tarmoqlarini rivojlantirish;

-O'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

-ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv uslubiy majmuaaarni yaratish va o'quv tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash;

-o'quvchilar kasb-hunar tanlaydigan va psixologik pedagogik jihatdan maslahatlar oladigan markazlar tarmoqlarini tashkil etish.

Ayni paytda oilaviy tarbiyaning asosiy kamchiliklari maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ishida ham o'z aksini topmoqda. Bu holat maktabdan tashqari ta'lim muassasasi pedagogning nomunosib mavqei, o'quvchilar bilan samimiy munosabatda bo'la olmasligi, ularning individual psixologik va fiziologik xususiyatlaridan yaxshi

xabardor bo'lmashligi, turli vaziyatlarda individual yoki jamoaviy ta'sir ko'rsatish vositalaridan foydalana olmasligida namoyon bo'lmoqda.

Pedagog o'quvchi shaxsining shakllanishi va taraqqiy etishiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi obro'li shaxs bo'la olishi zarur. Zero, uning faoliyati bilan bog'liq ayrim xususiyatlar o'quvchilarni maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga faol jalb etishga yordam beradi. Bu o'rinda pedagog shaxsi va kasbiy malakasiga xos bo'lgan bir qator xususiyatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jumladan:

1) bola maktabdan tashqari ta'lim tizimida o'zi uchun qiziqarli faoliyat yo'nalishinigina emas, shu bilan birga pedagogni ham tanlash imkoniyatiga ega;

2) so'z yuritilayotgan tizim pedagogining mutaxassislik yo'nalishida yuqori darajada mahoratli bo'lishi, uning uchun etalon sanaladi;

3) maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida faoliyat boshqa ta'lim muassasalaridan farqli tashkil etiladi, ya'ni, sub'yekt o'rtasidagi munosabat norasmiylik, oshkoralik va samimiylikka asoslanadi.

Ota-onalar ijtimoiy-pedagogik yo'nalishda pedagog bilan o'zaro hamkor bo'la olsalar, uning faoliyati yanada samarali bo'ladi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasasining pedagogi ota-onalarni qayta tarbiyalash va oilaviy tarbiya uslubini o'zgartirish imkoniyati, huquqiga ega emas. Binobarin, bu harakatlar uning kasbiy vakolatlari sirasiga kirmaydi. Pedagog oilaviy tarbiya jarayonini tashkil etishga pedagogik ta'sir o'tkazish yo'li bilan o'quvchi shaxsini shakllantirish uchun eng qulay sharoitlarni yaratishda yordam berishi mumkin. Ushbu holatda oila yoki bolaning ota-onasi emas, balki oilaviy tarbiya kasbiy ta'sir ob'yekti bo'lib maydonga chiqadi.

Pedagog tomonidan ota-onalarning maktabdan tashqari ta'lim muassasasi faoliyatining konsepsiyasi, ushbu muassasalarda o'quvchilarni rivojlantirish yo'lida amalga oshiriluvchi faoliyat maqsadi va vazifalari, o'quv mashg'ulotlarining mazmuni va ularning shaxsga yo'nalganlik imkoniyatlari hamda ijtimoiy-pedagogik ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtirilib borilishi o'zaro hamkorlikning tarkibiy qismi

sanaladi. Shu maqsadda pedagogik ma'rifat tizimini joriy etish foydadan holi bo'lmaydi. Binobarin, maktabdan tashqari muassasalar va ularning faoliyat yo'nalishlari to'g'risidagi axborotlar ota-onalarni faollashtiradi, ularning farzandlarning qiziqish va xohish-istaklaridan xabardor bo'lishlariga imkon beradi. Bu holatlar oilaning tarbiyaviy ta'sirini yanada oshiradi, natijada ularda mazkur ta'lim muassasasiga bo'lgan ijobiy munosabat shakllanadi.

Maktabdan tashqari ta'lim pedagoglari ish tajribasining ko'rsatishicha, ularning ota-onalar bilan o'zaro hamkorliklari quyidagi darajalarda tashkil etiladi:

1-daraja-pedagog va ota-onalarning shaxsiyatli, bevosita muloqoti;

2-daraja-pedagogning ota-onalar jamoasi bilan ota-onalar faollari orqali bilvosita o'zaro ta'siri;

3-daraja -pedagog hamda ota-onalar jamoalarining ijtimoiy roli aloqalari.

Maktabdan tashqari ta'lim amaliyotida turli xil ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarda o'zaro hamkorlikning bir-birini to'ldiruvchi va boyituvchi barcha darajalaridan foydalaniladi. Ota-onalar ushbu pedagoglar, to'g'arak rahbariga murojaat etib, farzandlarining muammolarini hal etishga mo'ljallatilgan norasmiy shaxsiy munosabatni kutadilar.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasasi pedagogining ota-onalar bilan o'zaro hamkorligi ularni ta'lim jarayoniga maksimal darajada jalb etishga, ularda sub'yektiv faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu holat esa aksariyat ota-onalarda o'quvchi hayotining mo'tadil kechishida ularni yoshlikdanoq muayyan kasb yoki hunarga o'rgatish, bu yo'lda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining imkoniyatlaridan foydalanish zarurligi haqidagi tushunchalarni hosil qiladi.

Shu bilan birga ta'kidlash joizki, agar pedagog o'z oldiga «ota-onalar imkoniyatlaridan» samarali foydalanish maqsadini qo'ymas ekan, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari va oilalar o'rtasidagi ijtimoiy sherikchilikka asoslanuvchi hamkorlik to'la qaror topmaydi.

Maktabdan tashqari ta'lim tizimida yuqorida tilga olingan barcha shartlarga rioya qilingandagina oila bilan o'zaro hamkorlik quyidagi katta imkoniyatlarga ega bo'ladi:

- ota-onalar uchun psixologik-pedagogik ma'rifat targ'ibotini tashkil etish asosida oilaning pedagogik imkoniyatlarini oshirish, maktabdan tashqari ta'lim muassasasining ichki imkoniyatidan kelib chiqib, ijtimoiy-psixologik, pedagogik, yuridik va tibbiy maslahatlar tashkil etish;

- ota-onalarning to'garaklar mashg'ulotlariga qatnashishlariga erishish, qiziqishlari bo'yicha oilaviy klublar tashkil etish, o'quvchilarning qobiliyatlariga muvofiq muayyan yo'nalishda ta'lim jarayoniga jalb etish;

- oilaviy bayramlar, musobaqalar va festivallar, oilaviy ma'ruzalar, dam olish klublarini tashkil etish asosida bo'sh vaqtni o'quvchilar va ota-onalarning birgalikda o'tkazishlariga imkon beruvchi tizimni yaratish;

- faol ota-onalar klublari, vasiylar kengashlari, muassasa pedagogik Kengashining ota-onalar sho'basi, ota-onalar qo'mitalarini shakllantirish;

- oilalarga bolalar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar muammolarini hal etishda psixologik-tuzatish tadbirlari tizimi asosida amaliy yordam ko'rsatish;

- ijtimoiy jihatdan kam himoyalangan oilalarga o'zaro hamkorlikka asoslanuvchi ijtimoiy xizmatlar vositasida yordam ko'rsatish.

Ta'lim muassasalarida amaliyotchi-psixolog, ijtimoiy pedagoglar faoliyatining yo'lga qo'yilganligi ota-onalar bilan yakka yoki guruhli tartibda ish olib borish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Bunda zarur vositalar bilan qurollangan mutaxassislar jamoasining o'ni beqiyos ahamiyatga ega. Zero, noto'g'ri yondashuv, o'quvchilarning psixologik rivojlanishlaridagi o'zgarishlarning ular tomonidan aniqroq va vaqtliroq payqalishi imkonini beradi. Muammoni o'rganish jarayonida shunday xulosaga kelish mumkin. Ota-onalarning maktabdan tashqari ta'lim pedagoglari bilan o'zaro hamkorlikka erishishga bo'lgan intilishlari bir xil emas. Ko'pgina ota-onalar maktabdan tashqari ta'lim xizmatlariga ehtiyoj sezsalarda, bu ehtiyoj yetarlicha qondirilmaydi. Amaliyotning ko'rsatishicha, maktabgacha ta'lim yoshidagi farzandi bo'lgan ota-onalar bilan pedagog o'rtasida o'zaro mustahkam hamkorlik yuzaga keladi va u muayyan ijobiy natijalarning qo'lga kiritilishini kafolatlaydi. O'quvchilar ulg'ayib borganlari sari

pedagog va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik ikkinchi o'rinda tushib qoladi. Shuni eslatish zarurki, maktabdan tashqari ta'lim muassasasi imkoniyatidan to'liq foydalanilmayabdi.

Maktabdan tashqari ta'lim tizimi va oilalar o'rtasidagi hamkorlik quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'zaro hamkorlikka ega sub'yektlar tomonidan ota-onalarning pedagogik mahorati, ehtiyojlari hamda bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish;

- ota-onalarning maktabdan tashqari ta'lim muassasasida to'garak mashg'ulotlarini passiv kuzatuvchisi bo'lib qolmasliklariga erishish, balki o'zaro hamkorlik asosida faol ishtirokchi sifatida ijobiy harakatlarni tashkil etishga undash;

- o'zaro hamkorlik davomida bola uchun o'ziga baho berishi va shaxs sifatida yetarli kamol topishiga yordam beruvchi «muvaffaqiyatli vaziyat»ni yaratish;

- bolalar va ota-onalar uchun ma'naviy-axloqiy sifatlarni boyitadigan, bolani ruhiy tushkunlik (stress)lardan himoyalash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish. Bu o'rinda maxsus psixologik-pedagogik treninglardan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi bilan oila va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari o'rtasida teng huquqlilik, ijodiy hamda manfaatli o'zaro hamkorlikning qaror topishi uchun sharoit yuzaga keldi. Natijada maktabdan tashqari ta'lim muassasalari hamda oilalar o'zlarining pedagogik imkoniyatlari bilan birlashtirgan, oilalarning madaniy-ma'naviy rivojiga yordam bergan, ota-onalar va bolalarning bir-birlarini tushunishlariga yordam beruvchi ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Shunday qilib, hozirgi vaziyatida oila va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining o'zaro aloqasi, hamkorligi va birgalikdagi harakatlari muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi deb hisoblash mumkin.

2.2. Maktabdan tashqari ta'lim jarayonida barkamol avlodni tarbiyalashning bugungi kundagi holati va uning pedagogik-psixologik chora tadbirlarini ishlab chiqish

Maktabdan tashqari qo'shimcha ta'lim. O'zbekiston hukumati bolalar va o'smirlarning qo'shimcha ta'lim olishini rivojlantirish maqsadida maktabdan tashqari ta'lim, jumladan bolalar o'smirlar sportini, ayniqsa qishloq joylarida rivojlantirishga oid qator kompleks dasturlarni qabul qildi. Ushbu dasturlarda qimmatga tushadigan sport inshootlarini talab qilmaydigan sport turlariga ustuvor ahamiyat berilgan. Kam ta'minlangan oilalar farzandlari, yetim va nogiron bolalarning jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi uchun shart-sharoit yaratishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Hukumat dasturlarida barcha fuqarolarning o'zini o'zi tashkil etish organi hududida sport maydonchalari va katta mablag' talab qilmaydigan inshootlari qurilishini rivojlantirish ham ko'zda tutilgan.

2006 yilda 1,4 mingta bolalar sporti va maktabdan tashqari qo'shimcha ta'lim muassasalari 1-9-sinf maktab o'quvchilarining 18.7 foizdan ortig'ini qamrab oldi.

Umumiy ta'lim maktablarida turli ixtisos va nomdagi 122 mingtadan ortiq to'g'arak va seksiyalar tashkil etilgan. Ularda 2,4 million nafardan ortiq o'quvchi (38%) qo'shimcha ta'lim olmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi bilan. Mamlakatimizda sog'lom va uyg'un kamol topgan avlodni tarbiyalash uchun zarur imkoniyatlar hamda shart-sharoitlarni yaratish, XXI asr-intellektual qadriyatlar ustuvorlik qiladigan asr ekanligini e'tiborga olgan holda Vatanimiz yigit va qizlarini har tomonlama barkamol shaxslar yetib shakllantirish borasidagi keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida va 2010 yil O'zbekiston Respublikasida "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan: 1. "Barkamol avlod yili" Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasi ilovaga muvofiq tarkibda tuzilsin. 2. Respublika komissiyasi (Q.M.Mirziyoyev) bir oy muddatda vazirliklar, idoralar va jamoat tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar

Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda “Barkamol avlod yili” Dasturi loyihasini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun kiritsin. 3. Dasturda har tomonlama barkamol yosh avlodni shakllantirishni ta'minlash bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari hamda boshqa tadbirlarga muvofiq amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni davom ettirish bilan bir qatorda quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha eng muhim vazifalarni hal etish nazarda tutilsin: Bolalar hamda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga, ularni uyg'un kamol toptirishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan me'yoriy huquqiy ba'zani takomillashtirish, amaldagi qonunlar va me'yoriy hujjatlarga zamon talablariga mos o'zgartish va qo'shimchalar kiritish; eng avvalo, sog'lom nasl, “Sog'lom ona-sog'lom bola” dasturini amalga oshirib borishni ta'minlash, onalarning reproduktiv salomatligini saqlash, bolalar va o'smirlar sog'lig'ini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, profilaktik sog'lini saqlashni ustuvor darajada rivojlantirish, tibbiyot xizmatining moddiy texnika bazasini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi va uni tarbiyalash masalalari bo'yicha aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini avj oldirish orqali sog'lom avlodni shakllantirish borasidagi chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish, yoshlarda sog'lom va ahil oila qurishga intilish ishtiyoqini shakllantirish; o'sib kelayotgan avlodni o'qitish va tarbiyalash sohasida yaratilgan zamonaviy moddiy-texnika ba'zasidan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, zamon talablaridan kelib chiqqan holda, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida real iqtisodiyot tarmog'lari hamda sohalarida talab etilayotgan ta'lim va mutaxassisliklarning yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqish hamda takomillashtirish, davlat ta'lim standartlarini, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish; o'quv jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalarini, elektron darsliklar hamda multimediya vositalarini keng joriy etish hisobiga mamlakat maktablari, kasb-hunar kollejlari va litseylarida, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim berish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya ba'zasini yeng zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilar va

murabbiylarning mashaqqatli mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirishning samarali tizimini shakllantirish; yosh oilalarga g'amxo'rlik qilishni kuchaytirish, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, jismonan sog'lom va uyg'un kamol topgan yosh avlodni tarbiyalash ishida jamiyatning muhim, hal qiluvchi bo'g'ini bo'lgan, farzandlar shaxs sifatida shakllanib, Vatanga muhabbat, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalanib, o'z xalqining munosib vakillari bo'lib yetishadigan, sog'lom hamda mustahkam oilani qurish uchun zarur sharoitlarni yaratish; Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik, tashqaridan kirib kelayotgan tuban «ommaviy madaniyat»ning turli illatlari xavfi va zararli ta'sirlaridan himoya qilish kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirish nazarga tutildi.

O'smirlar va bolalarning qo'shimcha ta'lim olishi hamda bo'sh vaqti muammolari maktablar huzurida kuni uzaytirilgan guruhlarini tashkil etish orqali hal etilmoqda. 2006 yilda 2856 maktab huzurida kuni uzaytirilgan guruhlar tashkil etilib, ular 390,4 ming nafar 1-9-sinf o'quvchisini, jumladan shaharlarda 147,2 ming, qishloqlarda 243,2 ming nafar o'quvchini qamrab oldi.

Mahalliy radio, teleeshittirishlar va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda, huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha profilaktika tadbirlari amalga oshirilmoqda. Huquq buzarlik va jinoyat sodir etishga moyil bolalar va o'smirlarni o'z vaqtida aniqlashga doir maqsadli kompleks operatsiyalar ham amalga oshirilmoqda.

Mahalla qumitalari mahalliy hokimiyatlar ko'magida oilalarga yordam ko'rsatmoqda. Mahalla qo'mitalari faoliyati qishloqlar va shahar mikrotumanlarida o'zaro ishonch va do'stona munosabatlar muhitini yaratishga qaratilgan.

Mahalla oilaning yoshlar tarbiyasiga ta'sirini mustahkamlaydi, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatadi.

O'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish maqsadida ularning qo'shimcha ta'lim olishiga ko'maklashgan holda, 89 foiz mahallada (jami mahallalar

soni 11400 tadan ortiq) tashkilotchi-pedagog ishlamoqda. Ular mahalla qo'mitalari bilan birgalikda o'smirlar bilan yashash joylarida maktabdan tashqari ishlarni olib bormoqda.

Shu bilan birga, Maktabdan tashqari qo'shimcha ta'lim tizimi yanada keng rivojlantirilishi lozim. Ushbu muassasalarning moliyaviy imkoniyatlari va aholining mazkur muassasalar xizmatlari uchun to'lov layoqatining pastligi bu boradagi cheklanishlarga asosiy sabab bo'lmoqda.

2010-2011 o'quv yili oldidan maktabdan tashqari ta'lim muassasalari Avgust kengashlarini o'tgan o'quv yili yakuniy tahlillariga asoslangan holda, interfaol shakllardan foydalanib, talabchanlik va ishchanlik ruhida o'tkazish ko'zda tutilmoqda. Kengashlar maktabdan tashqari ta'limdagi mavjud yo'nalishlar bo'yicha sho'balarga bo'lingan holda tashkil etiladi. Unga hududlardagi mahalla fuqarolari yig'inlari, turli davlat va nodavlat jamoat tashkilotlari, homiy tashkilotlar vakillari, ta'lim yo'nalishida uzoq yillar samarali mehnat qilgan va hozir nafaqada bo'lgan ustoz-murabbiylar hamda joylardagi xalq ta'limi boshqaruv organlari xodimlari, shuningdek, usta-hunarmandlar, to'garak dasturlari mualliflari, «Yil to'garak rahbari» tanlovi g'oliblarini taklif etish maqsadga muvofiq. Yalpi yig'ilishlarni ochiq muloqot shaklida, sho'ba yig'ilishlarini esa muammoli mavzularga bag'ishlab o'tkazishga e'tibor qaratish lozim.

Ochiq muloqot davomida o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga qiziqtirish, «Usta-shogird» an'anasini davom ettirish, joylarda mahalliy hokimliklar bilan kelishib, har bir shahar va tumandagi jami o'quvchilar sonini hisobga olgan

holda ochiladigan zamonaviy "Barkamol avlod" markazlari va uning qishloq joylardagi filiallarini o'quv metodik qo'llanmalar, tavsiyalar, o'tkaziladigan mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan plakatlari, didaktik materiallar bilan ta'minlash masalasi muhokama etiladi.

Sho'balarda ishida Prezident I. Karimovning «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asari mazmunidan kelib chiqib, ta'lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, bu borada maktabdan tashqari ta'lim muassasalari rolini oshirish, xususan, olib

borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish, o'quvchi-yoshlarni ona Vatanga muhabbat, ishonch ruhida tarbiyalash, diniy aqidaparastlik, jinoyatchilik, giyohvandlik illatlariga qarshi olib boriladigan faoliyat ko'lamini kengaytirish, tarbiyasi og'ir o'quvchilarni to'garaklarga jalb etish masalalariga alohida to'xtalib o'tish lozim.

Qatnashchilar o'zaro ijodiy fikr bildirishlari, maktabdan tashqari ta'limga oid muammolarga yechim topishlari va 2010-2011 o'quv yilida o'zi uchun zarur deb hisoblagan ko'rsatmalarni olishlari uchun sharoit yaratish maqsadida sho'ba yig'ilishlarini seminar-trening shaklida 3 yo'nalishda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

1-sho'ba. "Rahbar va pedagog xodimlarning ma'naviyatini oshirish – mukammal shaxs kamolotini ta'minlash omilidir"¹. Unda:

— 2009-2010-o'quv yili "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi o'quv yili"ning yakunlari, erishilgan samara, ta'lim-tarbiya jarayonining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bilan uyg'un olib borilganligi;

— ta'lim muassasalarida ma'naviy muhitning yaratilganligi, markaz rahbarining xodimlar faoliyatiga yangicha yondashuv metodlari;

— ta'lim tizimini tashkil etishda omilkorlik, ijodkorlik, talabchanlik, va ayni paytda, mehribonlik xususiyati hamda ishni izchillik bilan oqilona olib borishda rahbar mas'uliyati;

— "Rahbar ma'naviyati — ibrat namunasi" mavzusida fikr-mulohazalar;

— markaz rahbarlari faoliyatining yil yakunlari, tahlillari, istiqbol rejalari va rahbar ishlarining samaradorligini oshirish yo'llari;

— ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish;

— maktabdan tashqari ta'lim tizimida marketing xizmatining yangi yo'llarini topib, takomillashtirish;

— homiylar bilan ishlash yo'llarini izlash kabi masalalar muhokama qilinadi.

¹ Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: "Ma'naviyat" 2008. 171- 56-57 betlar.

2-sho‘ba. «Ta’lim muassasasida uslubchining o‘rni va vazifasi». Ushbu sho‘ba quyidagi mavzularni qamrab oladi:

- ilg‘or pedagogik ish tajribalarini o‘rganish, umumlashtirish va ommalashtirishning shakl va uslublarini izlash;

- ish rejalar va dasturlarning to‘g‘ri va samarali bajarilishini nazorat qilish, o‘quvchilarning to‘garak dasturlarini o‘zlashtirish darajasi monitoringini yuritishning yangicha usullarini izlab topish;

- davlat talablarining bajarilishi yuzasidan faoliyat tahlili;

- to‘garak rahbarlari metodbirlashma faoliyatini takomillashtirish;

- xonalarni hozirgi zamon talablari darajasida jihozlash va ulardan samarali foydalanish yo‘l-yo‘riqlari;

- turli uslubiy qo‘llanmalar, tavsiyalar tayyorlash;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash usullarining yangi yo‘llarini izlash, o‘quvchilar qamrovini oshirish borasida izlanish.

3-sho‘ba. «To‘garak mashg‘ulotlarini ilg‘or pedagogik texnologiya asosida tashkil etish yo‘llari», deb nomlanadi va:

- to‘garak mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilarni jismonan, aqlan, ma‘nan va ruhiy jihatdan shakllantirishni to‘laqonli amalga oshirish, ularning kasbga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish;

- davlat talablari asosida o‘quvchilarda zarur bilim, ko‘nikma, malakani hosil qilish, o‘quv dasturidagi murakkab mavzularni soddalashtirish bo‘yicha takliflar berish;

- «Ochiq to‘garak mashg‘ulotlari»ni tashkil etish va o‘zaro mashg‘ulot tahlillarini o‘tkazish;

- o‘quvchilarning maktabdan tashqari bo‘sh vaqtlarini qamrab olishga erishish, ularni to‘garaklarga qiziqtirish, turli tadbirlarga jalb etish usullari;

- maktabdan tashqari ta’lim muassasasining oila, maktab, mahalla bilan hamkorlikda ish olib borishini ta’minlash;

— pedagogik jarayonlarni insonparvarlashtirish asosida bola shaxsiga hurmatni shakllantirish;

— milliy istiqlol g'oyasi mavzularidagi mashg'ulotlarga ko'rgazmali materiallar tayyorlash;

— mashg'ulotlarni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, muzeylarda o'tkazishni tashkil etish kabi masalalar yuzasidan tahlil, taklif va mulohazalar o'rta tashlanadi hamda o'z yechimini topadi.

Sho'bxar jarayonida yana quyidagi muhim yo'nalishlarga ham e'tibor qaratish lozim:

— maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifati hamda samaradorligini oshirish;

— ta'lim muassasalarining ish faoliyatlarini rejalashtirishda mahalliy hududning o'ziga xos xususiyatlari, ota-onalar va bolalarning qiziqishlari asosida to'garaklar tarmoqlarini kengaytirish;

— muassasalarda pullik xizmat ko'rsatuvchi to'garaklar, kurslar tashkil etish bo'yicha ichki imkoniyatlarni hisobga olish;

— muassasalarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorligini yo'lga qo'yish yuzasidan chora-tadbirlar belgilash;

— iqtidorli bolalar bilan ishlashda maxsus dasturlar ishlab chiqish;

— ta'lim muassasalarida chet el vakolatxonalari, milliy-madaniy markazlar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'quvchi-yoshlarni do'stlik, o'zaro birodarlik, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;

— muassasalar qoshida kutubxonalar faoliyatini yanada jonlantirish, kitob jamg'armasini bolalar adabiyotlari bilan boyitish;

— muassasalarining moddiy-texnik bazasini xatlovdan o'tkazish va uni mustahkamlash bo'yicha homiyilar yordamini tashkil etish, qo'shimcha mablag'lar topish imkoniyatlarini tahlil etgan holda aniq istiqbolli chora-tadbirlar ishlab chiqish;

— Maktabdan tashqari ta'limga qo'yilgan davlat talablarida belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar bajarilishini ko'zda tutish:

— bolalarning to'garaklarga qiziqishlarini oshirib borish;

— to'garak a'zolarini astoydil mehnat qilishga va o'z mehnatlari samarasidan faxrlanishga odatlantirish;

— o'quvchilarni izlanuvchanlik, yaratuvchanlik, loyihalashtirish ishlariga jalb etgan holda malakalarini oshirish;

— to'garak a'zolarining ijodiy, tashkilotchilik qobiliyatlarini hamda iqtisodiy va huquqiy bilimlarini o'stirish;

— nazariy ta'limni amaliyot bilan bog'lay olish;

— o'quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlikda ishlash;

hukumatimizning ta'lim-tarbiyaga oid barcha qaror va hujjatlarini muntazam o'rganib borish va ish faoliyatiga tatbiq etib borish;

to'garak a'zolarida ona Vatanga, xalqiga bo'lgan sadoqatni shakllantirish, milliy qadriyatlarimiz va an'analarimizga bo'lgan hurmatini oshirish.

Yangi 2010-2011-o'quv yilida amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi dolzarb masalalarga Avgust anjumani qatnashchilari diqqat-e'tiborini qaratishi zarur:

— Xalq ta'limi vazirligining "2008—2012 yillarda uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga ko'tarish dasturi"ni bajarish yuzasidan vazirlik tomonidan belgilangan tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish:

— ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirish, bu sohadagi tajribalarni keng yoyish va ommalashtirish;

— maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini kompyuterlar bilan ta'minlash holatini yaxshilash, mahalliy hokimiyatlar bilan kelishilgan holda ularni modem, elektron pochta va internet tarmog'iga ulash;

— maktabdan tashqari ta'lim yo'nalishida jismoniy tarbiya va sportning chinakam ommaviyligini ta'minlash maqsadida to'garaklar, seksiyalar sonini ko'paytirish;

— maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining uslubiy qo'llanmalar, tavsiyalar, to'garak dasturlari bilan to'liq ta'minlanishiga erishish;

— maktabdan tashqari ta'lim muassasalari kutubxonalar fondini zarur siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, badiiy, o'quv adabiyotlari, gazeta va jurnallar bilan ta'minlash yuzasidan hokimliklarga talab va takliflar bilan chiqish;

— maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining Respublika va mahalliy ommaviy axborot vositalari, radio va televidenie bilan hamkorligini kuchaytirish;

— maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini pedagog kadrlar bilan yetarlicha ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish, bu sohadagi kamchilik va nuqsonlarga barham berish, kadrlar muammosi yuzasidan ta'limning boshqaruv organlariga tegishli takliflar tayyorlash;

— MTTM binolariga e'tiborni qaratish — zarur xom ashyolar, asbob-uskunalar, jihozlar va zamonaviy mebellar bilan ta'minlash;

Xulosa qilib aytganda, maktabdan tashqari ta'lim bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom qilib tarbiyalash bilan bir vaqtda, ularga kelajakda o'z o'rinlarini topishlari uchun imkoniyat yaratish, qiziqishlari va ehtiyojlari asosida zamonaviy va milliy yo'nalishdagi kasb-hunar sirlaridan boshlang'ich saboq berish va har tomonlama barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga zamin yaratishi lozim. Mustaqillik tufayli hozirda O'zbekiston deb atalmish vatanimizni nafaqat Sharqda, balki butun jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligini dunyo tan olmoqda. Bunga misol qilib xalqaro Yunesko tashkiloti tomonidan Amur Temur, Mirzo Ulug'bek, Abu Ali Ibn Sino, Al-Farg'oniy, Forobiy, At-Termiziy, Imom Buxoriy, va hakoza boshqa yetuk ota bobolarimizning yubileylarini yoki Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligini yoki "Alpomish" dostonining 1000 yilligini, yoki "Aveto"

nomli muqaddas kitobning 2700 yilliklarini o'tkazishdagi homkorliklarini keltirishimiz mumkin.

Boy tariximizga asoslanib qat'iy ishonch bilan ayta olamizki, bu tabarruk zamindan ko'plab buyuk allomalar: fozilu-fizalolar, olimu-ulamolar, siyosatchilaru-tarixchilar, qahramonlaru-sarkardalar, davlat arboblariu-jahongirlar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning ko'pgina asoslari mana shu tabarruk zaminda yaratilgan va takomillashtirilgan.

Diniy ilmlar mahsullari haqida Zardushtiylar ta'lumoti bo'yicha "Avesto", Islom ta'limoti bo'yicha "Qur'oni Karim", "Hadisi shariflar" hamda komil inson tarbiyasidagi diniy olimlarning nodir asarlari va hakoza'larni keltirish mumkin.

Dunyoviy ilmlar natijalari bo'yicha quyidagilarni keltirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz: Muhammad Muso Al-Xorazimiy tomonidan matematika fanining ayrim asarlarining yaratilishi va borlarini takomillashtirganligini tarix bir necha bor isbotladi va hattoki hozir fanda keng qo'llanib kelinayotgan "Algoritm" tushunchasi ham bevosita Al-Xorazimiy nomi bilan bog'liqdir. Yoki Abu Ali Ibn Sinoni ijodiga e'tibor beradigan bo'lsak, hozirgi tibbiyotlardagi "Meditsina" termini ning ulug' olim nomidan olinganligi ham tibbiyot ilmining asoslari Vatanimizdaligini anglash mumkin. Kimyogarlik, tuproqshunoslik, Koinot ilmlari va boshqa turli yo'nalishlarni alohida fan yo'nalishida qarash lozimligiga asos solgan Abu Rayhon Beruniy ham Ona zaminimiz farzandidir.

Al-Farg'oniy va Mirzo Ulug'beklar orqali o'zbek xalqi va Vatanimiz yer kurrasidan Samogacha ma'lum va mashhur bo'ldi, chunki Samo jismlaridan ikkitasining nomi bu ikki alloma-ajdodlarimiz nomiga qo'yilgan. Natijada diniy va dunyoviy ilmlar rivoj topdi. Shu sababli ham IX-X asrlarda Sharq fani taraqqiyotida Markaziy Osiyo donishmandlari ijodini musulmon madaniyatining "Oltin davri" deb e'tirof etildi yoki yaqin o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak "Oynai jahon " ning makoni ham Toshkentdir va "qog'oz"ni makoni esa qadimiy va hamisha navqiron Samarqanddir.

Bunda quyidagi ma'lumotni dalil sifatida keltiramiz, chunki ko'pgina Vatandoshlarimiz "qog'oz"ning Vatani Xitoy deb biladilar: "qog'oz bobida shuni

aytishni shuni aytishni shuni aytishni lozim ko'ramizki, bizningcha, qog'ozning ilk Vatani qadim Turon, Turkiston, Bugungi O'zbekiston-qadim Samrqanddir. yer yuzining sayqali Samarqand shahri buyuk ipak yo'lining naq markazida, qog o'rtasida joylashgan edi. Undan Sharqqa – Xitoy va Yaponiyaga qancha yo'l bo'lsa, g'arbga – to Andaluziyagacha, qurdoba amirligigacha shuncha masofa bor edi. Madaniy tarzda paxta etishtirish, Ipak qurti boqish dastlab diyorimizda boshlanganligi, keyin boshqa o'lkalarga tarqalganligi tarixdan ma'lum. Demak, paxta, ipak tolalari ortilgan karvonlar bilan birga qog'ozimiz ham bu yoki Sharqiy Turkiston, Tibet, Mo'g'iliston, Marjurlar davlati orqali Chin va Chinmochinga, Yaponiyaga, buyog'i esa Eron, Arab, Rim, Yunon, Andaluziya va Kastiliyaga etib borgan, deyish mumkin”.

Vatanimizdagi ilk salmog'ini yanada baland ko'taruvchi quyidagi qiziq – qimmatli ma'lumotlarni ham e'tiboringizga havola etamiz: “Hozir birinchi kosmanavt kim bo'lgan?” – deb kimdan so'ramang, darhol “Yuriy Gagarin” deb javob beradi. Atoqli olim, shoir va dramaturg Maqsud Shayxzoda “Bizdan so'rasalar, dunyoda birinchi fazogir Turon o'g'loni Farobiy, Beruniylar, zamondoshi Al- Javhariy bo'ladilar. Kamina beruniy haqida yangi asar yozish uchun manbalar ko'rayotib, Al- Javhariy va uning jasorati haqida ma'lumot uchratib qoldim”, degan edi. Yaqinda esa Turkiyalik olim, professor Usmon Turonning “Turkiy xalqlar mafkurasi” kitobida ushbu satirlarga ko'zimiz tushib qoladi: “IX asrda Turk faylasufi Farobiy va uning hamshahari Ismoil Javhariy arab tiliga oid “Sixax” nomli ulkan asarni, tog'asi Ibrohim bin Ishoq esa “Devon ul-arab” kitobini yozadilar. Shuning uchun ham qazviniy: “Ajabki, turk diyorining eng chekkasida joylashgan Forob Shahridan chiqqan bu ikki olim arab tilining ustozlari bo'ldilar”, deydi. Fizika bilan shug'illangan Javhariy o'zi yasagan qanoatlar bilan uchishni mashq qilayotib yiqiladi va shu jarohati ta'sirida og'rib vafot etadi.

Demak, Vatanimizda xoh dunyoviy ilm, xoh boshqaruv ilmi va shu kabi ilmiy salohiyatlar baravar kamol topgan. Bugungi kundagi millatlararo bag'rikenglik,

dinlararo totuvlik, taraqqiyparvarlik deb nomlanuvchi milliy istiqlol g'oyasining asosiy kategoriyalari o'sha davridayoq hayotda joriy etilganligiga guvoh bo'lamiz.

Umuman olganda ajdodlarimiz Vatan nima, Ona tuproq, Vatanimiz tarixi, Vatan tuyg'usi, Vatan sog'inchi va Vatan qayg'usi bilan yashadilar va bugungi yosh avlodimiz uchun to'la ma'noda ibrat namuna bo'la oladilar.

Ajdodlarimizning ilmiy salohiyati va bunyodkorligi haqida Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirishni lozim topdik: “Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko'rki fayzini, mahobatini yo'qotmagan asori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi. Beshavqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimiy tosh yozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinalarida saqlanayotgan 20000 dan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, ahloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin, deb dadil ayta olamiz”¹.

Yurtimizda ilmning baquvvat ildizlari azaldan mavjud bo'lib, bugungi kunda bularga tayanib buyuk bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishga cheksiz imkoniyatlar nihoyatda mavjud. Chunki hozirda yoshlarimiz uchun ilm olishga to'liq imkoniyatlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan mamlakatlarda o'z ilmiy salohiyatini oshrib kelmoqdalar yoki Vatanimizda yashayotgan xohlagan yoshlar uchun “INTERNET” orqali dunyoga chiqishning imkoniyati nihoyatda beqiyosidir. Bu borada ularni qo'llab quvvatlovchi avvola muhtaram prezidentimiz bor. Bu ulug' zotning yoshlar tarbiyasidagi shiori “Farzandlarimiz bizdan ko'ra bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari kerak”dir. Shuning bilan birga “Mahalla”, “Kamolot”, “Sog'lom avlod uchun”, “Nuroniy”,

¹ Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T: “Ma'naviyat.”.2008.171- 75 bet.

“Ulug’bek”, “Umid”, “Ustoz” jamg’armalarining ta’lim-tarbiya sohasidagi ezgu ishlarini o’sib kelayotgan avlodni ilmiy solahiyatli, jismonan sog’lom, va ma’naviy jihatdan barkomol qilib tarbiyalashga qo’shayotgan hissalari ham bugun mamlakatimiz umum ommosiga ma’lum va mashhurdir.

Hozirdagi mavjud xalqaro hayot, jamiyat taraqqiyotining shunday pallasiga ko’tarilganki, bunda taraqqiyotni baquvvat harbiy yoki iqtisodiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql idrok, fikr, g’oya, ta’limot va ular asosidagi ilg’or texnologiyalar hal etadi.

Hozirdagi zamon ilmi, rivoji darajasi kishilarning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy, aqliy, axloqiy, kasbiy saviyalarni va faoliyatlar yo’nalishlarida ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Ayniqsa, ilmiy – texnika ravnaqi, xususan axborot texnikalarining kishilik faoliyati turli jabhalariga jadal sur’atlar bilan kirib borishi bunyodkorlik ishlarini qilishga kuchli turtki bo’lmoqda.

Bu borada bugungi yoshlarimiz oldiga quyidagi talablarni quysak xato bo’lmaydi:

- bunyodkorlik ishlarini qilishga uchun elib-yugur, harakat qil, boshni ishlat;
- bunyodkorlik ishlarini qilishda “etti o’lcha bir kes”, pul topishni emas, uni qanday sarflashni bil;
- qo’lingdan katta ishlar kelishiga ishonch, chuqur (tahliliy) fikr qil, farosat bilan ish qil;
- insof-diyonatni yo’qatma, boylik ketidan quvma;
- umum ommoga ma’qul bo’ladigan, jamiyat taraqqiyotiga hizmat qiladigan kasb hunarni egallashning sir-asrorlarini o’rgan;
- xalq farovonligini ta’minlovchi omillarni (noz-ne’matlarni) yaratishning ilg’or texnologiyalarini egallashga harakat qil;
- yurt tinchligi, Vatan taraqqiyotini ta’minlovchi omillarni yaratishga ijodiy yondash va ijobiy natijalarni qo’lga kirita olishga o’zingni ishontir;

- kelajagini buyuk, bugungi kunning bunyodkorlik ishlarini qilishga cheksiz imkoniyatlarga to'la, endi Vatanning ravnaqiga qanday hissa qo'shmoqchisiz?

- Prezidentimiz, xalqimiz orzu qilgan barkamolavlod bo'lishiga tarixiy, intellektual, tashkiliy, ma'naviy, g'oyaviy, madaniy-ma'rifiy iqtisodiy va boshqa asoslari bor, endi sen "BARKAMOL SHAXS" bo'lishing shart.

Yoshlarimiz oldiga qo'yilgan talabalarga e'tibor berilsa va shu ketma ketligida ta'lim-tarbiya olib borilsa muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov orzu qilganidek "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" amalga oshiriladi. Bu orzuni amalga oshirishda dastlab "Barkamol avlod orzusini", maqsadni quyidagicha ifodalab oldik: "Kadrlar tayyorlash milliy dasturida" – barkamol avlodni tayyorlashning qonuniy davlat ahamiyatiga ega bo'lgan hujjati. Bunda birinchidan, milliy dasturni to'liq bajarishga erishish, ikkinchidan, butun xalqni mazkur sababli ishga to'liq jalb qilish, uchinchidan, umum ommoni mazkur ishlarning mazmun mohiyatiga tushinishiga erishish va nihoyat to'rtinchidan, har hil fuqoraning belgilangan vazifalar bajarilishiga ishonch hosil qilishiga ishtirok etish istagini borligiga erishish.

Keyin "Barkamol avlod orzusini"ni amaga oshirishga zarur bo'lgan asoslarini quyidagicha ifodalab oldik.

- ajdodlarimiz orzusi;
- orzuga erishish maqsadi;
- orzuga erishish yo'li va vositalari;
- "Taraqqiyotning besh tamoyili";
- "Ta'lim to'g'risida"gi qonun;
- "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi": KTMDni amalga oshirish bosqichlari, uzliksiz ta'lim tarkibi, uzliksiz ta'lim tizimi, KTMD milliy modeli;
- barkamol avlod tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy ildizlari;
- ta'lim-tarbiyani axborotlashtirishning yangi texnologiyalari;
- o'quv rejalari va dasturlari;
- DTS;

- Mutaxassislik bo'yicha tafsifnoma (kvalifikatsion xarakteristika).

Mazkur asoslarni e'tiborga olib, ilmiy bilishni deduktsiya tamoyili asosida "Barkamol shaxs"ni shakllantirishga quyidagicha ifodalab o'tdik. Bunda shaxs tarbiyasini rostlab turish maqsadida muntazam ravishda ilmiy-uslubiy ta'minotiga e'tibor berilib borildi va jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'zgarishlar bo'yicha axborot ta'munotiga e'tibor qaratilishi lozimligi aniqlandi.

Shu yo'sindagi olib borilgan ta'lim-tarbiya oxirida barkamol shaxsga qo'yilgan talab bilan (mezon bilan) tarbiyalangan shaxsdagi intellektual salohiyati solishtirilib ko'riladi va mezon bo'yicha talabalar bajariladigan keyin tayyor mutaxassis "Mehnat bozori"ga yo'llanma beriladi.

Respublikamiz ahliga mustaqillik o'zligimizni anglashdek buyuk ne'matni ato etdi va bu sohadagi ishlarimizda tub burilishlar boshlanib ketdi. Jumladan, talabalarimizni milliy istiqlool g'oyalari bilan qurollantirish va ular qalbidagi milliy g'ururni uyg'otish har qachongidan ham dolzarb masaladir.

Shu sababli ham mazkur ma'ruzaga talabalar ongiga bunyotkorlik g'oyalarini singdirishning vosita va yo'llari hamda uning axborotli ta'lumoti haqida ma'lumot berishni maqsad qilib qo'ydik.

qo'yilgan muammoni echimini topishda quyidagi ishlarni amalga oshirishga to'g'ri keldi:

- milliy istiqlool g'oyasini nazariy tarixiy asoslari o'rganilib chiqildi va ular "Zardushtiylar ta'lumoti, uyg'onish davri ta'lumoti, Jadidchilik harakati nomoyondalari ta'lumotlari" uzliksizlikda (ketma-ketlikda) bitta tizimga keltirildi;

- milliy istiqlool g'oyasining tarixiy asoslarini e'tiborga olgan holda milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'rganish uchun "QADRIYATLAR" nomli kompyuterli tizim ishlab chiqildi;

- talabalarimizga bugungi kunda o'qishda va boshqa yo'nalishlardagi faoliyat ko'rsatishga Davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar haqidagi ma'lumotlar bir tizimga keltiriladi;

- bunyodkor va vayronkor g'oyalar ta'riflari tayyorlandi va ular orasida talabada shakillanadigan burchlar va xislatlar ham yagona tizimga keltirildi;
- vayronkor g'oyalar oqibatlari sinflarga ajratildi (klassifikatsiya qilindi);
- yuqoridagi ketma-ketlikdagi ma'lumotlar asosida ma'lumotlar bazasi (bilimlar banki) tashkil etildi;
- ma'lumotlarni axborotga aylantirish mezonini ishlab chiqildi;
- tayyolangan axborotlarni kompyuterli tizimda ishlatish algoritmi ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan tizim yoshlar qalbi va ongiga bunyodkorlikning istiqbollari, hamda vayronkorlikning oqibatlari to'g'risidagi bilimlarni boyitishda mustahkam vosita bo'ladi. Ayniqsa vayronkorlik oqibatlari natijasida jamiyatda, davlatda, jamoada, oilada va nihoyat shaxsda bo'ladigan zararlar yoshlar ongida mustahkam o'rinish qoladi.

Xulosa.

Ilmiy tadqiqot ishimizga umumiy xulosa yasar ekanmiz quydagi tadqiqot ishimizda hozirgi kunning eng muhim masalalaridan biri bo'lgan ta'lim tizimini tubdan isloh etish va uni samarali tashkil etish bo'yicha o'quvchilarda maktabdan tashqari ta'lim tizimini samarali tashkil etish va o'quvchilarda maktabdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni to'garaklarga jalb etish, ularda har xil to'garaklarga bo'lgan qiziqishlarni orttirishimizdan iborat. Biz bu tadqiqot ishimizda yuqorida ko'rib chiqilgan masalalar bilan bir nechta chora tadbirlarni ko'rib chiqdik. Bular albatta amaliyotda ham o'z o'rnini topadi degan umiddamiz.

1. Maktabdan tashqari ta'lim O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sanalib, uning asosiy maqsadi «bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish»dan iborat.

2. Maktabdan tashqari ta'lim maktabdan tashqari ta'lim muassasalari (bolalar va o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqalar) tomonidan tashkil etiladi.

3. Mustaqillik yillarida maktabdan tashqari ta'lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratila boshlanganligi natijasida mazkur yo'nalishda ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Bugungi kunda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash, ularning iqtidorini aniqlash va uni to'la namoyon etishda alohida o'rin egallab kelmoqda. Biroq bu sohada muayyan muammolar ham mavjud-ki, ularni tezkor hal etish ijtimoiy ehtiyoj va davr talabi sanaladi.

1. Maktabdan tashqari ta'lim tizimida malaka oshirishga nisbatan texnologik yondoshuvni qaror toptirish to'garak mashg'ulotlarni aniq belgilangan maqsadga muvofiq oldindan loyihalash asosida o'quvchilar faoliyatini to'g'ri tashkil etishga imkon beradi. Jarayonga nisbatan texnologik yondoshuv maktabdan tashqari ta'lim muassasasi imkoniyatlarini hisobga olish, kutilgan natijalarni oldindan bashoratlash, yuzaga kelishi

mumkin bo'lgan vaziyatlarni nazarda tutish va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash, maqsadning natijalanishi to'la kafolatlash yo'lini ishlab chiqilishini ta'minlaydi.

2. Maktabdan tashqari ta'lim tizimini tashkil etishning alohida yo'nalishi bu tizimda faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalari bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalari hamda oilalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, hamkorlik imkoniyatlardan samarali foydalanish sanaladi. Maktabdan tashqari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari hamda oilalar o'rtasidagi hamkorlik asosida ota-onalarni maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi konsepsiya, qo'shimcha ta'lim maqsadi va vazifalari, o'quv mashg'ulotlarining mohiyati to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor etish, ota-onalar o'rtasida pedagogik ma'rifatni tashkil etish, ularni metodik bilimlar bilan qurollantirish o'zaro hamkorlikning tarkibiy qismi sanaladi.

TAVSIYALAR.

1. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida to'garak mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha alohida ustoz murabbiylarni yetgazib berish.
2. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatining sertifikatsiyalanishiga erishish.
3. Republika turli mintaqalarida maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotlarini shakillantirishda mahalliy ehtiyojini o'rganish.
4. To'garak mashg'ulotlari jarayonida kasbiy rivojlanishga bo'lgan keng ko'lamli ilmiy izlanishlarni amalga oshirish.

Glossariy.

Axloq-insonlarni hamkorlikdagi hayotiy faoliyatlarida zarur ijtimoiy me'yorga soluvchi tushuncha.

Dunyo qarash-anglashda detirmentlashgan obrazlar va shaxs xulq atvori qarashlari, e'tiqodi va g'oyalarning tuzumidir.

Dolzarblikni asoslash-ta'lim va tarbiya nazariyasi hamda amaliyotning istiqbolidagi taraqqiyoti muammolarini o'z vaqtida o'rganish va hal qilish zarurligini ko'rsatish.

Metod- tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarni tadqiq qilish bilish usuli, harakat qilish usuli.

Ob'yekt-insonning sub'yektning bilish predmeti va faoliyati.

Pedagog-tarbiyachi, o'qituvchi dars beruvchi.

Ta'lim-ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo'yicha egallanishi zarur bo'lgan ma'lumot va ko'nikmalar majmui.

Bilim-borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi. Ob'yektiv reallikning inson ongida adekvat aks ettirilishi (tasavvur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar). U kundalik, ilmiy, empirik, nazariy bilimlarga ajratadi.

Kundalik bilim sog'lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi. Insonning atrof-muhitga moslashuvi, uning xatti- harakatlari va oldindan ko'ra bilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Malaka- shaxsning ma'lum bir kasb yaroqlilik,tayyorlik darajasi shu kasbga ishlay olishi uchun zarur bilim ko'nikmalar yig'indisi.

Texnologiya-so'zi 'Techno' san'at va mahorat "logis" ta'limot so'zlaridan olingan.

O'quv dastur-har bir alohida fan uchun o'quv dasturi tuziladi. Dastur o'quv rejasiga asoslanadi, fanining maqsadidan o'quv rejasi bo'yicha ajratilgan soat va bilim hajmi uning tuzilishi mavjud jamiyatning g'oyaviy siyosiy yo'nalishini o'zida aks ettiradigan davlat hujjatidir.

Dars-anii maqsadni ko'zlab belgilangan vaqtda bir-xil yoshdagi o'quvchi, yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotdir.

O'quv reja: davlat hujjatidir unga barcha umumta'lim maktablari so'zsiz amal qiladi. Bu hujjatda sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatiladi.

Mashq- Qandaydir bir harakatni faoliyatni va uni yanada takomillashtirish maqsadida muntazam ravishda qaytarish.

Pedagogik texnika-bilim va malakalar yig'indisi bo'lib, alohida o'quvchilar, shuningdek jamoaning barcha a'zolari faolligini oshirishda zarur bo'lgan pedagogik qiziqtirish.

Pedagogik faoliyat-ta'lim maqsadlarini va uni amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida ko'rinishi.


Guruhli ta'lim - bir o'qituvchi bir necha o'quvchini o'qitadigan ta'lim shakli. Guruhlar o'quvchilar soniga qarab: kichik (3—6 o'quvchi), o'rta (7—15 o'quvchi), katta (15 dan ortiq o'quvchi) guruhlarga ajratiladi. Shuningdek, har bir guruhdagi ta'lim oluvchilarning yoshiga, ta'lim yo'nalishiga va shu kabilarga qarab ham guruhlarga ajratiladi. Bu shaklni qoplash jarayonida yakka ta'lim shakllari ham amalga oshiriladi.

Jamiyat-tabiat rivojlanishining oliy bosqichi bo'lib, alohida sotsial mazmunga ega. Ekologiyada tabiat va jamiyat o'zaro uzviy bog'langan bir butun materiyaning ikki qismi, o'ziga xos sotsial ekosistema hisoblanadi.

Ko'nikma-ongli faoliyat (harakat)ni tez, tejamli, to'g'ri, kam jismoniy va asabiy kuch sarflagan holda bajarish. Shaxsning bilimlari asosida tarkib topadi. Dastlabki shakllanish bosqichlarida bunday harakatlar jiddiy diqqat bilan bajariladi, keyingi bosqichlarda diqqat bilan nazorat qilish kamayib boradi va natijada avtomatlashgan harakatga aylanadi.

Ilovalar.

1.Ilova.



Bolalar va o‘smirlarning qo‘shimcha
2. Ilova ta’lim muassasalarini rivojlantirish.


	2000			2006			2000 ga nis. % 2005 da		
	I	I I	II I	I	I I	II I	I	I I	III
Maktabdan tashqari muassasalar –jami	58 1	32 ,8	487 ,6	62 8	26, 2	551 ,2	108 ,1	79, 9	113,0
Jumladan.									
O‘quvchilar saroylari va uylari.	19 0	14 ,0	205 ,8	14 4	7,2	157 ,0	75, 8	51, 4	76,3
Texnil ijodiyot markazlari.	13 0	7, 0	95, 5	13 4	5,3	115 ,2	103 ,1	75, 7	120,6
Yosh tabiatshunoslar stansiyalari.	10 8	5, 1	72, 5	11 2	3,8	79, 9	103 ,7	74, 5	110,2
Bolalar ijodiyoti markazlari.	65	4, 7	79, 8	10 7	6,9	139 ,6	164 ,6	146 ,8	174,9
Boshqalar.	88	2, 0	3 4	13 1	3,0	59, 5	148 ,9	150 ,0	175,0
Bolalar o‘smirlar sport maktablari soni.	53 0		261 ,2	51 6		298 ,6	97, 4		114,3
Radiiv- musiq maktablari va san’at maktablari soni	31 1		70, 3	30 4		39, 7	97, 7		56,5
Klub muassasalari qoshidagi bolalar va o‘smirlar bdiy havaskorlik jamolari soni.		606 1	105 ,1		6192 ,0	97, 8		102 ,2	93,1

O‘quv yili boshida.

I — soni; II — to‘garaklar soni; III — qatnashchilar soni (ming kishi) manbaa:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.

3. Ilova.



ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.:1997.
2. O'zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 1992.
3. O'zbekiston Respublikasi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". -T.: 1997.
4. Yuksak bilimli intilktual rivojlangan avlodni tarbiyalash. Mamlkatni baraqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti. –T.: 2012. 16-17 fevral.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Asarlar, 2-jild. -T.: O'zbekiston, 1996. 123-bet.
2. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar, 3-jild. –T.: O'zbekiston, 1996.34-bet.
3. Karimov I. A. Milliy davlatchilik, istiqlol mafkurasi va huquqiy madaniyat to'g'risida. Tuzuvchilar U. Tadjixanov, A. Saidov. -T.: O'zR. IIV Akademiyasi, 1999. 122-bet.
4. Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi. To'plam. To'ldirilgan ikkinchi nashri. Tuzuvchilar Sh. Qurbonov, X. Saidov, R. Axliddinov. –T.: O'zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 57-bet.
5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot–pirovard maqsadimiz. Asarlar, 8-jild. –T.: "O'zbekiston" 2000. 84-bet.
6. Karimov I.A. Donishmand halqimizning mstahkam irodasiga ishonaman. Fidokor 2000.8-iyun.
7. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. Asarlar, 9-jild. -T.: "O'zbekiston" 2001.132-135, betlar.
8. Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. Asarlar, 10-jild. -T.: "O'zbekiston" 2002. 145-bet.

9. Karimov I. A. Biz tanlagan yo‘l–demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. Asarlar, 11–jild.-T.: “O‘zbekiston”. 2003.68-bet.
10. Karimov I. A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. Asarlar, 12–jild.-T.: O‘zbekiston, 2004.97-bet.
11. Karimov I. A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. Asarlar, 13-jild.-T.: “O‘zbekiston”. 2005.54-bet.
12. Karimov I. A. Inson, uning huquq va erkinliklari–oliy qadriyat. 14-jild.-T.: “O‘zbekiston” 2006. 86-bet
13. Karimov I.A. Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida so‘zlagan nutqi. Bishkek. 2007 16 avgus-T.: «Xalq so‘zi» gazetasi, 2007. 17 avgust.
14. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch.-T.: “Ma’naviyat”. 2008. 171-34-bet.
15. Karimov I.A “Barkamol avlod–kelajagimiz tayanchi”-T.: “Ma’naviyat”. 2010. 192-43-bet.
16. Karimov I.A. O‘zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida.“O‘zbekiston”. 2011. 440-134-bet.

Asosiy adabiyotlar va jurnallar.

1. Zarifov K. O‘qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarining roli.-T.: O‘qituvchi, 1993. – 112-b.
1. Inoyatov U.I. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasasiga rahbarlik qilish uslubini takomillashtirishning psixologik-pedagogik omillari. Kasb-hunar ta’limi j., 2002. 1-son. 6-7 b.
2. Yo‘ldoshev J. Malaka oshirishning nazariy va metodologik asoslari (yoxud o‘qituvchi bo‘lish osonmi?). - T.: O‘qituvchi, 1998. - 209 b.
3. Yo‘ldoshev J. Malaka oshirish - ta’lim-tarbiya omili.- T.: O‘qituvchi, 1993. 136-b.
4. Yo‘ldoshev J. Ta’limimiz istiqboli yo‘lida. -T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1996. 224- b.

5. Yo'ldoshev J. O'zbekiston Respublikasi ta'lim-taraqqiyot yo'lida.- T.: O'qituvchi, 1994. 45-b.
6. Saidqulov Sh. O'zbekistonda o'qituvchilar malakasini oshirish tizimi ta'lim jarayonini tabaqalash. - T.: Fan. 1994.132-b.
7. Maktabdan tashqari ta'limga qo'yilgan davlat talablari. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. - T.: Ma'rifat-Madadkor, 2000. - 135-148-b.
8. Mardonov Sh.q. Pedagog kadrlarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari: Ped.fan.dokt. .. diss. avtoref. - T.:2008. 34-bet.

Qo'shimcha adabiyotlar.

1. J. Fozilov va boshqalar «O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish» -T.:2000.78-bet.
2. O. Xasanboeva va boshqalar «Pedagogika tarixi» -T.: 2001. 84-bet.
3. A.Xojjahmedov «Mahalla odobi» -T.: 2001. 16-17-betlar.
4. Pedagogika (o'quv qo'llanma). -T.: 2004.43-bet.
5. . Qur'oni Karim. Manbalar tarjimas. Tarj. Alouddin Mansur. -T.:2004.54-bet.
6. Hadis va hayot -T.: "Sharq". 2000-2005. 32-bet.
7. M.Quronov. «Otalar kitobi» -T.: 2006. 12-13betlar.
8. M.Quronov « Milliy tarbiya» -T.: 2007. 57-bet.
9. Ma'rifat gazetasi 2007-2008. 12-16-betlar.
- 10.M.To'xtaxodjaeva va boshqalar «Pedagogika» -T.:2008. 76-bet.

Internet sayitlari.

www.google.uz

www.ziyone-T.:uz

www.fikr.uz

www.ziyoistagan.uz

Mundarija.

Kirish:3

I.bob O‘quvchilarning kasbiy rivojlanishga darsdan tashqari to‘g‘arak mashg‘ulotlarni tashkil qilishning yo‘naltiruvchi xarakteri

1.1. Mustaqillik sharoitida ta‘lim tizimida o‘quvchi yoshlarni maktabdan tashqari ta‘lim muassasalari to‘g‘arak mashg‘ulotlariga jalb etish.11

1.2. Maktabdan tashqari ta‘lim tizimini tashkil etishning metodik asoslari.25

II. Bob. To‘g‘arak mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchini kasbiy rivojlanishga yo‘naltirishning amaliy uslubiyoti.

2.1. Maktabdan tashqari ta‘lim tizimida o‘quvchi yoshlarni to‘g‘arak mashg‘ulotlariga qiziqtirishning ijtimoiy pedagogik omillari.40

2.2. Maktabdan tashqari ta‘lim jarayonida barkamol avlodni tarbiyalashning bugungi kundagi holati va uning pedagogik-psixologik chora tadbirlarini ishlab chiqish.55

Xulosa va tavsiyalar.....71

Ilovalar.73

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.78